

Namangan Davlat Universiteti
Filologiya fakulteti
Ingliz tili va leksika-stilistika kafedrası
Bitiruv malakaviy ish

Talabanning ismi, sharifi

va otasining ismi: Davlatov Sherzod Aminjon o‘g‘li

Guruxi: 404 O‘quv yili: 2011-2012

Mavzu: *“Alisher Navoiy asarlari ingliz tilida”*

Ilmiy rahbar: O.Bahodirov, katta o‘qituvchi

Ilmiy maslahatchi: R. Karimov, f.f.n., dots

Taqrizchilar:

1. Ichki taqriz: Q. Sidiqov, f.n.n., katta o‘qituvchi

2. Tashqi taqriz: M. Saidova, f.n.n., dots

NAMANGAN-2012

ALISHER NAVOIY ASARLARI INGLIZ TILIDA

KIRISH

I BOB

ALISHER NAVOIY HAYOTI VA IJODIY FAOLIYATI

- 1.1 Navoiy hayoti va yaratgan asarlari
- 1.2 Navoiy davlat arbobi

II BOB

ALISHER NAVOIY ASARLARI VA ULARNING YEVROPADA TUTGAN O'RNI

- 2.1. Navoiy asarlarini Yevropada targ'ib qilinishi
- 2.2. Tarjimalar tadriji

III BOB

NAVOIY ASARLARINI INGLIZ TILIGA O'GIRISHNING O'ZIGA XOS JIHATLARI

- 3.1. G'azal poetikasi va tarjima
- 3.2 Hikmatli so'zlar tarjimasi

XULOSA

SUMMARY

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. Mustaqillikka erishganimizning ilk kunlaridanoq, hurmatli prezidentimiz Islom Abdug'aniyevich Karimovning tashabbuslari bilan, necha yillardan buyon qiyinchilik va zulm ostida yashab kelgan xalqimiz o'zlikni anglashni boshladi. Buning natijasida mustaqil O'zbekistonimizda dunyo hamjamiyati bilan teng huquqli aloqalar qilish va ulkan ishlarni amalga oshirishga kirishildi. Buni avvalo ijtimoiy- manaviy sohalarida ko'rishimiz mumkin. Hurmatli Prezidentimiz Islom Karimovning "Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch" asarida shunday deyiladi: *"Manaviyat – insonni ruhiy poklanish, qalban uyg'onishga chorlaydigan, odamning ichki dunyosini, irodasini baquvvat, imyon –etiqodini butun qiladigan, vijdonini uyg'otadigan beqiyos kuch, uning barcha qarashlarining imkonidir"* - deyiladi. Manaviyatimiz, milliy mafkuramizni boyitishda o'z tarixiy merosimizda tashqi umuminsoniy g'oyalar va ularni tarannum etuvchi mumtoz asarlar muhim ahamiyat kasb etadi

Hozirgi tez rivojlanayotgan zamonda xar bir mamlakatning o'zligini anglagan, o'z taraqqiyot yo'liga ega bo'lgan bugungi kunda bunday tarixiy asarlarning ahamiyati katta. Yurtboshimiz ta'kidlaganlaridek, *"Tarix millatning haqiqiy tarbiyachisiga aylanib bormoqda. Buyuk ajdodlarimizning ishlari va jasoratlari tarixiy xotiramizni jonlantirib, yangi fuqarolik ongini shakllantirmoqda. Axloqiy tarbiya va ibrat manbaiga aylanmoqda."*¹ Bugungi

¹I.A Karimov Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch. Toshkent: Ma'naviyat 2008 62-bet.

davlatchiligimiz siyosati, komil inson tarbiyasi va buyuk kelajak qurish yo'lidagi sa'y-harakatlarimiz albatta ota-bobolarimizning yo'l-yo'riqlari, pandu-nasihatlari va boy ma'daniy merosiga asoslangan. Donishmand va qat'iyatli yurtboshimiz, muhtaram prezidentimiz Islom Abdug'anievich Karimovning jasorat va mashaqqatlari evaziga bugungi baxtli kunlarga yetib keldik. Islom Abdug'anievich o'zlarining chiqishlaridan birida "Bugunning qahramoni" mavzusiga e'tibor qaratadilar. Har bir davrning o'z qahramonlari bo'lganidek, bugungi davr nafasi bilan yashayotgan, bugungi tashvishlar bilan kurashayotgan zamonamiz qaxramoni obrazini yaratish borasida u kishi adabiyotshunoslar va san'atning barcha sohalariga vakillariga turli takliflar berdilar. Xo'sh, bugungi kun qahramoni qanday bo'lishi lozim? Uning ichki dunyosi, tashqi qiyofasi va nutq madaniyati qanday bo'lishi kerak? Zamon qahramoni obrazini yaratishda eng muhim omillardan biri uning nutqidir. Shuning uchun ham rivojlangan mamlakatlarda davlat raxbarlari, siyosiy arboblari va hukumat boshliqlarining nutqini obrazlashtirish va badiylashtirish borasida maxsus ishchi guruxlar faoliyati yo'lga qo'yilgan. Bugun o'zbek tili lug'at boyligi tarkibi shunday bir so'zlar bilan boyib bormoqdaki, ularni barchaga tushunarli bo'lishini ta'minlash maqsadida, turli izoxli lug'atlar chiqarilmoqda. Agar tasodifan ikki fermerni o'zaro suhbat qulog'ingizga chalinib qolsa, ular istefoda etayotgan ayrim so'zlarning ma'nosini anglashga qiynalishingiz tabiiy. *XX yuz yillik texnologiya sohasidagi innovatsiyalari, til sanoati rivojini oliy nuqtaga ko'tarilishi, jamiyatimizni bosqichma-bosqich yopiq jamiyatdan ochiq jamiyatga aylinishi – bularning barchasi turli mintaqa mamlakatlarining madaniyati bilan tanishish; madaniy aloqalar o'rnatishga imkon beradi, ya'ni turli milliy madaniyatga ega bo'lgan kommunikativ akti ikki ishtirokchisi bir-birini o'zaro tushuna oladigan bo'ladi. Buning uchun tarjimonlar oldida juda murakkab lekin o'ta sharaflil vazifa turibdi.*² Insoniyat faoliyatining qadimgi turlaridan bo'lmish tarjima adabiyotni lisoniy-uslubiy nuqtai nazardan tahlil etish nisbatan yosh tadqiqot usuli sifatida mamlakatimizda endi shakllanib kelayotgan filologik soha bo'lib, uning tamoyillari olimlar tomonidan ishlab chiqilayotganiga ko'p fursat bo'lgani yo'q. Ammo tarjimachilik faoliyati keyingi yarim asr mobaynida misli ko'rilmagan sur'atlar bilan rivojlanib bormoqdaki, bunday amaliyot tadqiqotchilar e'tiborini keng ko'lamda o'ziga tortgani holda, eng samarador usullar vositasida nazariy umumlashtirilishi uchun zarurat vujudga kelmoqda. Bu hol lisoniy uslubiyatning bizda keyingi o'n yilliklar mobaynida o'z huquqiy maqomiga intila borib, endigina mustaqil filologik soha sifatida ilmiy jamoatchilik nazariga tushayotganligi, shuning uchun ham uning hali o'ziga yaqin, turdosh sohalar bilan munosabatga kirishib, o'z dadil yutuqlaridan ularni yetarli darajada bahramand qilib ulgurmagani bilan bog'liqdir. Fanlar tizimi odatda tabiiy, ijtimoiy va texnik fanlarga ajratiladi. Ijtimoiy fanlar ichida filologiya, filologiya ichida – adabiyotshunoslik va tilshunoslik bor. O'zbekiston Qahramoni, xalq shoiri Abdulla Oripov, Navoiyshunos olimi Suyima G'anieva istiqlol yillarida Prezidentimiz Islom Karimov rahnamoligida Alisher Navoiy merosini milliy, tarixiy, ma'naviy qadriyatlarimizni tiklash, adabiy-badiiy va tarbiyaviy ahamiyatini namoyon etish jihatidan puxta o'rganish va talqin etish borasida keng ko'lamli ishlar amalga oshirilayotganini ta'kidlaydi. Bu jarayonda ulug' bobomiz tarannum etgan ezgu g'oyalar mazmun-mohiyatini xalqimiz, ayniqsa, yoshlar qalbiga chuqur singdirishga alohida e'tibor qaratilayotir. Milliy o'zlikni anglash, xalqimiz ma'naviyatini yuksaltirish, jamiyatimizda bag'rikenglik, ahillik, o'zaro hurmat muhitini mustahkamlashda, eng muhimi, yoshlarni har jihatdan barkamol insonlar etib voyaga yetkazishda bu katta ahamiyat kasb etmoqda.

² I. A. Karimov. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari, tarqiyot kafolatlari. – Toshkent: O'zbekiston, 1997. – B. 140

² I.A.Karimov O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Qonunchilik Palatasi va Senatining 2010 yil 12 noyabrdagi "Mamlakatimizda demokratik islohatlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish kontsepsiyasi" ma'ruzasidan.

Istiqlol yillarida Alisher Navoiy asarlarining yigirma jildli mukammal to'plami chop etildi. Ushbu akademik nashr Navoiyning barcha asarlarini batafsil sharhlar va izohlar bilan kitobxonlarga yetkazishga xizmat qilmoqda. Shoir ijodini fundamental va amaliy tadqiqotlarda atroflicha o'rganish bilan birga, uning hayoti, davlat arbobi sifatidagi faoliyati, falsafiy, ilmiy-ma'rifiy qarashlarini aks ettiruvchi ko'plab asarlar nashr etildi va bu xayrli ish izchil davom etmoqda.

Bugun Alisher Navoiy asarlari dunyoning ko'plab mamlakatlarida tarjima qilinmoqda, katta qiziqish bilan o'rganilayotir. Bularning barchasi shoir dahosiga jahon ahlining yuksak ehtiromi, milliy ma'naviy merosimizning keng e'tirofidir.

Mavzuning dolzarbligi, biz jahon sahnasiga bugun kelganimiz yo'q, o'zbek xalqining ota bobolari, hususan, Alisher Navoiydek butun dunyoga o'rnak bo'la oladigan bobokalonimizning asarlarini jahon tillarida qanday tahlil qilinishida va o'rganilishida ko'rsa bo'ladi. Ularni o'rganish, tadqiq etish, ularda mujassamlashgan ma'naviy imkoniyatlardan bugungi ma'naviy-ma'rifiy jarayonlarda foydalanish jamiyatimiz a'zolarini, ayniqsa, yoshlarni har tomonlama komil inson qilib tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu kelajakdagi yosh avlod uchun tariximizni va ota bobolarimiz qoldirgan merosni anglash, asrab avaylashga va millat ruhi bilan yashashga undaydi. Ayniqsa, Alisher Navoiyning buyuk merosi, o'zbek xalqining, o'zligini anglashda va dunyo tasnifida o'z o'rnimizni egallashimizda katta rol oynaydi. Bunga misol qilib Navoiy qoldirgan ilmiy, siyosiy, qolaversa ma'naviy merosini jahon hamjamiyati tomonidan o'rganilishi, andoza olinishi fikrimizning yorqin misolidir. Har qanday xalqning o'z tarixi, madaniyati va buyuk kishilari bo'lgani kabi o'zbek xalqining ham Alisher Navoiydek unitilmas siyosiy borligi biz o'zbeklar uchun katta baxtdir.

Bu fikrlarni Navoiy badiyatini nemischaga o'girishning o'ziga hos hususiyatlarini o'rgangan A. Abdullajonov ham shunday so'zlar bilan tasdiqladi: "Malumki jahon adabiyotida Sharq sheriyatiga qiziqish asrlar davomida so'nmagan. Bu qiziqish XX asrda yanaada kuchaydi. Shu bois bugungi kunga kelib, Sharq shoirlari asarlarining g'arb tillariga jumladan, inglizchaga va nemischaga tarjimalarini tahlil qilish, bu sohada to'plangan tarjimalarini umumlashtirish, ilmiy huloosalar chiqarish o'zbek tarjimashunosligi oldida turgan dolzarb vazifalardan biri bo'lib qolmoqda"³. Adabiy asarlar mazmuni, vazuifasi, tasviriy vositasihajmi va ba'zi tashqi jihatlari bilan bir biridan farqlanadi. Masalan, Navoiy g'azallari o'zidan qofiyalaninish tartibi, baytlar soni, maqtada shoir tahallusining qo'llanishi kabi poetic hususiyatlaribilan, aytaylik masnaviy (a-b, b-b, v-v) shaklida yozilgan "Farhod va Shirin" dostonidan keskin farq qiladi.

Bitiruv Malakaviy Ishining maqsadi. Navoiy asarlari ingliz tilidagi tarjimasini o'ziga xos jihatlarni o'rganish va uning xususiyatlarini tahlil qilishdan iboratdir.

Bitiruv Malakaviy Ishining vazifasi. Bitiruv Malakaviy Ishining asosiy vazifalari sifatida:

- Alisher navoiyning asarlari va ularning jahon adabiyotida tutgan o'rnini kuzatish va o'rganish.
- Bu ma'noda Navoiyning Hikmatli so'zlarini jahon adabiy jarayonida tutgan o'rnini aniqlash va uning tarjimalarini tahlil qilish.
- Navoiyning she'riy asarlarni ingliz tiliga o'girishning o'ziga xos jihatlarni ilmiy tadqiq etish.
- Navoiy asarlarini ingliz tiliga tarjima qilishdagi muammolarini o'rganish.

Bitiruv Malakaviy Ishining ilmiy yangiligi. Bitiruv Malakaviy Ishining ilmiy yangiligi shundan iboratki, faqat Alisher Navoiy asarlarining butun dunyoga yoyilishi bilan cheklanmasdan Sharq mumtoz adabiyotida namunalari badiyatini tarjimalarda qayta yaratish va tadbil etishda janr bosh masala ekanligini har taraflama isbotlashga harakat qilindi. Chunki Sharq

³ Abdullajonov A. Navoiy badiyatini nemischaga qayta yaratishni tadbil etish. Toshkent 1998.

mumtoz shariyatida janrlar o'ta qtiylashgan poetic "temir" qoidalariga bo'ysunar edi. Shuning uchun Navoiy ijodidagi har bir mustaqil janr tarjimon oldiga maxsus va alohidamuammolar qo'yadi. Bu hususa g'arb tillari, jumladan ingliz tiliga tarjima qilishda kuchliroq nomayon bo'ladi. Sharqona go'zal badiy san'atlarorqali yuzaga keladi. Bitiruv malakaviy ishimizda Navoiy asarlaridagi badiy san'atlar tarjimasi ham tadqiq etildiki, bu masala sharq shariyatidan g'arb tillariga ogirishda asosiy masalalardan biridir.

Bitiruv Malakaviy Ishining ob'ekti. Bitiruv Malakaviy Ishining uchun manba sifatida Alisher Navoiyning asarlari, hikmatli so'zlari va bir qator Navoiyga bag'ishlangan she'rlar olindi.

Bitiruv Malakaviy Ishining metodlari. Respublikamiz Prezidenti I.A.Karimovning milliy g'oya, ma'naviy qadriyatlar, ijtimoiy taraqqiyotga oid nazariy fikrlari, hozirgi zamon tarjimashunoslik ilmining yutuqlari, tajribalari, o'zbek va jahon tarjimashunos olimlarining fikr-mulohazalari natijasi o'laroq qiyosiy-tipologik tahlil metodi Bitiruv Malakaviy Ishining metodologik asosini tashkil etadi.

Bitiruv Malakaviy Ishining nazariy va amaliy ahamiyati. Alisher Navoiyning asarlari shu qadar ulkan ahamiyatga egaki, unga xos bo'lgan xususiyatlari va ularni ingliz tillarida o'ziga xos jihatlarini o'rganish va tarjimalarni o'zaro qiyosiy tahlil etish zamonaviy tarjimashunoslik fani uchun g'oyat zarur ilmiy xulosalar chiqarish imkonini beradi.

Bitiruv Malakaviy Ishining natijalarini joriy qilinishi shundaki uning ilmiy xulosalari va tadqiqot natijalaridan oliy ta'lim muassasalarining filologiya fakulteti talabalarini o'qitishda, tadqiqotlarda va tarjimashunoslik sohalarga oid darslik va qo'llanmalar yaratishda, ta'limning turli bosqichlari uchun dastur, darslik va o'quv qo'llanmalari yaratishda foydali bo'ladi.

Bitiruv Malakaviy Ishining ning nazariy usuli asosi.

Sharq-u g'arb, o'zbek-u nemis, rus va boshqa xalqlar tarjimashunosligi, adbiyotlari tarjimashunosliklarining nazariyasi, falsafa va adabiyot, tarjima va badiiy ijod haqidagi asarlari bitiruv malakaviy ishimizning nazariy usuli bo'lib hizmat qildi.

Bitiruv Malakaviy Ishining tuzilishi. Bitiruv Malakaviy Ishi kirish, uch asosiy bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

I BOB ALISHER NAVOIY HAYOTI VA IJODIY FAOLİYATI.

1.1 Navoiy hayoti va yaratgan asarlari

O'zbek mumtoz adabiyotining XV asrgacha bo'lgan tarixiy taraqqiyotiga yakun yasab, uni yanada yuqori pog'onaga ko'targan ulug' iste'dod sohibi, mutafakkir Alisher Navoiy o'z ijodiy faoliyati bilan jahon adabiyotining yirik namoyandalari safidan faxrli o'rin egallaydi.

Alisher Navoiy dastlab adabiyotga shoir sifatida kirib kelgan va adabiyotda she'riyat qasrini qurdi, g'azal mulkinging sultoniga aylandi, keyinchalik qator dostonlar yaratdi, adabiyotshunos, tilshunos, davlat va jamoat arbobi sifatida dunyoga tanildi. Alisher Navoiy o'z xalqini savodli, bilimli, madaniyatli ko'rish ruhi bilan qalam tebratdi. U mehnatkash, pok, halol, o'z aql-farosati, yaxshi odamlar qalbidagi zakovat va saxovat, samimiyat, sevgi-sadoqat, fidoyilik, inson baxti, xalqlarni, mamlakatlarni do'stlikka, hamkorlikka, ezgulikka chaqirish, insonparvarlik, vatanparvarlik tuyg'ularini ulug'ladi. Alisher Navoiyning yaratgan asarlarida millat taqdiri, birligi, el-yurt qayg'usi, yurtni obodonlashtirish, ilm, san'at va adabiyotni

rivojlantirishni, Vatanga muhabbat, mehnatga sadoqat, axloqiy yuksaklikka intilish, go`zallik va muhabbat, mehr va muruvvat, shaxs erkinligi, ijtimoiy adolat uchun kurash g`oyalari bilan yo`g`rilgan- ligidir.

Haqiqatan ham Alisher Navoiy o`zbek mumtoz adabiyotining asoschisidir. U XV asr o`zbek mumtoz adabiyoti va madaniyati rivojiga munosib hissa qo`shgan ulug` siymodir.

2012 yil 9 fevralda Alisher Navoiy tavalludiga 571 yil to`ldi. O`zbek xalqi, Navoiyshunoslar va adabiyot ahli bu sanani nishonlaydilar, chunki uning yaratgan durdonalari umumbashariyligi va hamma davrlar uchun hozirjavobligi bilan barchani maftun etib kelgan, uning asarlari jahon tillariga va qardosh xalqlar tillariga tarjima qilingan. Bu sana munosabati bilan kutubxonalarda shoir hayoti va ijodiga bag`ishlangan adabiy-badiiy tadbirlar, navoiyxonlik kunlari, davra suhbatlari, navoiyshunoslar, adabiyotshunoslar, yozuvchilar va shoirlar bilan uchrashuvlar tashkil etish ko`zda tutilgan.

“Buyuk gumanist shoirimiz faoliyati va ijodiga teran nazar tashlasak, uning dahosi ijtimoiy hayotning, mafkura va madaniyatning barcha sohalarini qamrab olganidan hayratga tushamiz.”

“ Barcha olijanob ishlarimizda Navoiy g`oyalari, Navoiy ibrati, Navoiy ruhi bizga hamisha hamroh bo`lsin!”⁴

I.Karimov

O`zbek mumtoz adabiyotining XV asrgacha bo`lgan tarixiy taraqqiyotiga yakun yasab, uni yanada yuqori pog`onaga ko`targan ulug` iste`dod sohibi, mutafakkir Alisher Navoiy o`z ijodiy faoliyati bilan jahon adabiyotining yirik namoyandalari safidan faxrli o`rin egallaydi. Alisher Navoiy dastlab adabiyotga shoir sifatida kirib kelgan va adabiyotda she`riyat qasrini qurdi, g`azal mulkingning sultoniga aylandi, keyinchalik qator dostonlar yaratdi, adabiyotshunos, tilshunos, davlat va jamoat arbobi sifatida dunyoga tanildi.

Alisher Navoiy o`z xalqini savodli, bilimli, madaniyatli ko`rish ruhi bilan qalam tebratdi. U mehnatkash, pok, halol, o`z aql-farosati, yaxshi odamlar qalbidagi zakovat va saxovat, samimiyat, sevgi-sadoqat, fidoyilik, inson baxti, xalqlarni, mamlakatlarni do`stlikka, hamkorlikka, ezgulikka chaqirish, insonparvarlik, vatanparvarlik tuyg`ularini ulug`ladi. Alisher Navoiyning yaratgan asarlarida millat taqdiri, birligi, el-yurt qayg`usi, yurtni obodonlashtirish, ilm, san`at va adabiyotni rivojlantirishni, Vatanga muhabbat, mehnatga sadoqat, axloqiy yuksaklikka intilish, go`zallik va muhabbat, mehr va muruvvat, shaxs erkinligi, ijtimoiy adolat uchun kurash g`oyalari bilan yo`g`rilgan- ligidir.

Mamlakatimiz Prezidenti Islom Karimov: "Insonni olam gultoji deb ulug`lagan hazrat Navoiyning butun hayoti, butun ijodi zamirida ezgulik, adolat, nafosat kabi yuksak tuyg`ular dunyoni obod va munavvar qiladi, bashariyatni ma`naviy halokatdan qutqaradi, degan qat`iy ishonch mujassam" deb bejiz aytmaganlar. Haqiqatan ham Alisher Navoiy o`zbek mumtoz adabiyotining asoschisidir. U XV asr o`zbek mumtoz adabiyoti va madaniyati rivojiga munosib hissa qo`shgan ulug` siymodir.

O`zbek adabiyotining asoschisi, shoir, olim, ma`ri- fatparvar, faylasuf, musiqashunos, davlat arbobi Nizomiddin Mir Alisher Navoiy 1441 yil 9 fevralda Hirot shahrida tavallud topgan. Uning otasi G`iyosiddin Muhammad zamonasining bilimdon kishilaridan va Temuriylar xonadoniga yaqin shaxslardan bo`lgan. U go`dakligidanoq she`riyatga va ilm olishga qiziqqan, farzandiga ta`lim-tarbiya berish uchun munosib shart-sharoitlar yaratib berishga harakat qilgan. Alisher 4-5 yoshlarida shahzoda Husayn bilan birga maktabda ta`lim oladi.

Alisher yoshligidanoq sharq adabiyotiga, fors she`riyatiga qiziqqan. U badiiy asarlarni o`qish va o`rganish bilan kifoyalanib qolmay, o`zi ham she`rlar yoza boshladi. U 10-12 yoshlaridayoq ilk she`rlari bilan mashhur bo`lib, katta san`atkor va olimlarning diqqatini o`ziga

⁴ 2012 yil 9 fevralda Alisher Navoiy tavalludiga 571 yilligidaga maruzasidan.

jalb qildi. Alisherning iste'dodidan mamnun bo'lgan mavlono Lutfiy (Xondamirning xabar berishicha) uning:

Orazin yopqoch ko'zimdanda sochilur har lahza yosh,

Bo'ylakim, paydo bo'lur yulduz, nihon bo'lg'och quyosh...

matla'li g'azalini tinglab, "Agar mumkin bo'lsa edi, men o'zimning forsiy va turkiy tillarda aytgan o'n-o'n ikki ming she'rimni shu bir g'azalga almashar edim",- degan.

Navoiy mantiq, falsafa, riyoziyot va boshqa fanlar bilan shug'ullanadi. Firdavsiy, Nizomiy, Xisrav Dehlaviy, Sa'diy, Atoiy, Lutfiy va boshqa yozuvchilarning asarlarini qunt bilan o'rgana boshlaydi. U o'zbek va fors-tojik tillarida bir qancha she'rlar bitib, ikki til bi-limdoni sifatida shuhrat qozonadi. O'zbek tilidagi she'rlarida "Navoiy" ("navo"-kuy so'zidan), fors-tojik tilidagi she'rlarida esa asosan "Foniy" ("fano"-vaqtincha, o'tkinchi so'zidan) olib va ba'zan "Navoiy" taxallusini qo'llaydi. Navoiy dastlab lirik she'rlari bilan keng shuhrat qozona boshlaydi. U o'zbek tilidagi dastlabki yirik asarini, ya'ni "Hiloliya" qasidasini Sulton Husayn Boyqaroga bag'ishlagan bo'lsa, fors tilidagi birinchi yirik asari "Tuhfat ul-afkor" (1476) qasidasini Jomiyga bag'ishlagan edi. O'zbek olimlari O. Sharafiddinov, V.Mahmud, Oybek, Ya. G'ulomov, I.Sulton. A.Zohidov, V.Abdullaev, A.Qayumov, S.G'anieva v.b. Navoiyning hayot yo'li haqida asarlar yaratishgan.

Lirik merosi

Navoiy ijodi ixlosmandlari uning she'rlarini yig'ib, «Ilk devon» (1464-65) tuzgan edilar, so'ngra «Badoyiul-bidoya» («Go'zallikning boshlanishi»), «Navodirun-nihoya» («Nodirliklar nihoyasi») nomli devonlar (1470-yillar) tartib berilgan. Lirik merosi umumiy hajmi 50000 misradan ortiq «Xazoyinul-maoniy» nomli to'rt devon (1491—1498)ga jamlangan. Navoiy she'riyatining mavzular doirasi keng, janrlar ko'lami (16) xilma-xil. G'azallari «oshiqona, orifona, rindona» (Shayxzoda) sifatlar bilan o'rganiladi. G'azallarida insoniy muhabbat, ilohiy ishq bilan uyg'un holda ulug'lanib, «majoz - haqiqat ko'prigi» aqidasiga amal qilingan. Alisher Navoiy she'riyatidagi zohiriy ma'no yangiliklari bilan birga botiniy sifatlarni ham o'rgangandagina ularni idrok etishga erishish mumkin.

«Nazmul-javohir» (1485) Hazrat Alining «Nasrul-laoliy» asarining turkiy nazmga solingani bo'lib, 266 ruboiydan iborat bu asarda axloqiy-ta'limiy qarashlar o'z aksini topgan.

O'R FA ShIda (3-fond) Navoiyga mansub 24 asarning 254 qo'lyozmasi saqlanadi, undan ko'pchiligi devonlarning nusxalari. Navoiy devonlari prof. H.Sulaymon tomonidan yig'ilib, tasnif etilgan. «Ilk devon» Sankt-Peterburgdagi Saltikov-Shedrin kutubxonasida (inv.564) saqlanadi. «Navodirun-nihoya» O'R FA SHI (inv.1995) dagi nusxalari nihoyatda nodir bo'lib, ular Navoiy davrida Hirotda Sulton Ali Mashhadiy (1487), Abdujamil kotib (1487-88) tomonidan ko'chirilgan. Alisher Navoiy ijodining yuksak cho'qqisi «Xamsa» asari (1483-85)dir, shoir birinchilardan bo'lib, turkiy tilda to'liq «Xamsa» yaratdi va turkiy tilda shunday ko'lamdor asar yozish mumkinligini isbotlab berdi. «Xamsa» tarkibiga «Hayratul-abror», «Farhod va Shirin», «Layli va Majnun», «Sab'ai sayyor», «Saddi Iskandariy» kabi dostonlar kiradi. «Xamsa» haqida xorijiy olimlar A.Vamberi, J.Malokolin, F.Richard, L.Vari, Y.Ekman, E.Partele; rus tadqiqotchilari I.Krachkovskiy, V.Bartold, E.Bertels, Konrad, B.Jirmunskiy, A.Yakubovskiy, A.Semyonov; turk olimlari F.Ko'prulu, A.S.Levend, K. Eraslon; ozar olimlari H. Arasli, G. Aliev; o'zbek olimlari Fitrat, I.Sulton, V.Zohidov, A.Qayumov, T.Jalolov, S.Nazrullaeva, A.Abdug'afurov, M.Hakimov, S.Hasanov v.b. ishlari ma'lum. «Hayratul-abror»da hamd, munajat, na't, hayrat boblaridan keyin shoirning Yaratganga, borliqqa, tabiatga, insonga bo'lgan falsafiy, ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, ilmiy, ma'rifiy, axloqiy va estetik munosabati aks ettirilgan. Podshoh bilan ulusning insonlik nuqtai nazaridan ayirmasiz, farqsizligini, podshohning hunar, axloq, adl, insof, mantiq, taqvo yo'lida ulusdan o'ta olmaganini anglatish bilan o'zining adolatli shoh haqidagi qarashlarini anglatadi. «Farhod va Shirin»da qahramonlar sevgi sarguzashtlari orqali insonning tarix va kelajak oldidagi vazifasini belgilaydi, insonlik faqat muhabbatda emas, balki o'sha sharaflil nomning himoyasi orqali ekanini uqdiradi.

Sharq tarixidagi Xusrav va Shirin voqeasini badiiy jihatdan qayta ishlab, Farhod orqali o'zining komil inson haqidagi qarashlarini ifoda qilgan. Navoiy dostoni orqali Firdavsiy, Nizomiy, Dehlaviy an'analari yangilangan bo'lsa, undan keyin bu syujet turk mumtoz adabiyotining o'zak muammolarini hal etishda asosiy o'rin tutdi va bu yo'nalishda Ahmad rizvon, Jaliliy, Harimiy, Bafqiy, Urfi Sheroziy, Lamiiy, Nizoriy v.b. dostonlari yaratildi. «Layli va Majnun» dostonida arab ertaklari orqali ma'lum syujet o'zining tugal shaklini topdi, unda ishq falsafasi betakror uslubda ifoda qilindi. Keyinroq yaratilajak Fuzuliy, Andalib, Sayqaliy dostonlari uchun ma'naviy zamin bo'ldi. «Xamsa» tarkibidagi «Sab'ai sayyor» va «Saddi Iskandariy»da shohlik bilan bog'liq masalalarni birinchi o'ringa olib chiqdi. Bu dostonlar xamsanavislik an'anasida o'zining ijtimoiy-siyosiy xarakteri va originalligi bilan ajralib turadi. «Xamsa»ga ustoz Abdurahmon Jomiy (1414—1492) yuqori baho berdi. O'R FA ShI qo'lyozmalar fondida 15-20 asrlarda ko'chirilgan 166 qo'lyozma saqlanadi. Ulardan 84 tasida beshlikning hamma dostonlari berilgan.

«Xamsa» haqida xorijiy olimlar A.Vamberi, J.Malokolin, F.Richard, L.Vari, Y.Ekman, E.Partele; rus tadqiqotchilari I.Krachkovskiy, V.Bartold, E.Bertels, Konrad, B.Jirmunskiy, A.Yakubovskiy, A.Semyonov; turk olimlari F.Ko'prulu, A.S.Levend, K. Eraslon; ozar olimlari H. Arasli, G. Aliev; o'zbek olimlari Fitrat, I.Sulton, V.Zohidov, A.Qayumov, T.Jalolov, S.Nazrullaeva, A.Abdug'afurov, M.Hakimov, S.Hasanov v.b. ishlari ma'lum. O'zMUda «Xamsa»ni tadqiq etish borasida B.Qosimov, B.Akrom, H.Boltaboev, A.Erkinov, D.Farmonova tadqiqot ishlari olib bormoqdalar.

Tasavvufiy asarlari

Navoiyning tasavvufiy qarashlari deyarli barcha asarlarining ruhiga singgan bo'lsa-da, maxsus «Lisonut-tayr» dostoni(1499)da, «Nasoyimul-muhabbat» manqabasi]]"(1495-96)da, «Tarixi anbiyo va hukamo»(1485-8), «Arbain», «Munojot» singari asarlarida aks etgan. «Lisonut-tayr»da borliq va ilohiyot haqidagi qarashlarini, inson, tabiat va hayot haqidagi fikrlarini qushlar tili va sarguzashtlari orqali bayon qilgan. O'zbekiston mustaqillikka erishganidan so'ng Navoiy asarlarini diniy va so'fiylik jihatidan o'rganish kengaydi, ular ob'ektiv va ilmiy bahosini olmoqda. «Arbain», «Munojot» kabi asarlari chop etildi. Jomiyning «Nafahotul-uns min hazarotil-quds» tazkirasini tarjima qilib va to'ldirib, so'z yuritilgan 618ta shayxlar sonini 770 taga yetkazdi.

Alisher Navoiy asarlari xalqlarimiz o'rtasidagi mustahkam do'stlik va hamkorlik uzoq tarixiy asoslarga ega ekanligini anglatadi, – deydi ozarboyjonlik navoiyshunos olim, professor Nushabe xonim Orasli. – Ulug' shoir Nizomiy dostonlariga alohida hurmat bilan qaragani bois “Majolis un-nafois” asarida ozarboyjon shoirlari ijodiga munosib o'rin bergan. Mashhur ozarboyjon shoiri Muhammad Fuzuliy Navoiyni o'zining ustози deb bilgan. Alisher Navoiy ozarboyjon adabiyoti rivojiga ham katta ta'sir ko'rsatgan. Hozir ham ko'plab ozarboyjonlik shoirlar o'zlarini hazrat Navoiy yaratgan ulkan badiiy maktab o'quvchisi hisoblashadi. Filologiya fanlari doktori, professor Olmos xonim Ulviyning ta'kidlashicha, 1902 yili Bog'chasaroyda “Muhokamat ul-lug'atayn” asari ozar tilida nashr etilgan. Umuman, o'tgan asrda Alisher Navoiyning o'nlab asarlari ozarboyjon tiliga tarjima qilinib, keng ko'lamda tadqiqotlar olib borilgan, ko'plab monografiyalar, ilmiy asarlar yaratilgan. Bunday xayrli ishlar hozir ham izchil davom etmoqda.

Alisher Navoiy g'azallari, dostonlari Xitoyda ham sevib o'qiladi. Xususan, 1991 yili “Xamsa” asari Chin yurtida nashr etilgan. Navoiy merosining salmoqli qismi nasriy asarlardan iborat. Ular ijtimoiy-siyosiy, axloqiy-ta'limiy va ilmiy-falsafiy yo'nalishdadir. «Mahbubul-qulub»(1500-01) Navoiyning so'nggi yirik asari bo'lib, unda ulug' mutafakkir adibning hayoti davomidagi kuzatishlari, to'plagan boy tajribasi o'z yuqori darajasida aksini topgan. Uch qismdan iborat bu asarda «Soriun-nosning af'ol va ahvolining kayfiyati» (1), axloqiy muammolar (2), «mutafarriqa favoyid va amsol surati» (3) masalalari ifodalangan.

«Xamsatul-mutahayyirin» («Besh hayrat», 1494) asarida ustoz va do'sti Abdurahmon Jomiy, uning hayoti lavhalar, tariqati, yozishmalari, asarlari haqida hayratomuz hikoyalar keltiriladi. «Holoti Sayyid Hasan Ardasher» (1488-89), «Holoti Rahlavon Muhammad» (1493) asarlari manoqib-holot yo'nalishida bo'lib, ularda shoirga ustozlik qilgan buyuk shaxslar hayoti, faoliyati yoritilgan. «Munshaot» (1498-99) Navoiyning maktublari to'plami (jami 88 ta xat) bo'lib, ular sog'inchlik xatlari, navro'z tabriklari, ta'ziyanomalar, siyosiy o'gitlar, sulhnomalar va boshqa yo'nalishlardadir. Ular Husayn Boyqaro, Badiuzzamon va boshqa tarixiy shaxslarga bitilgan.

Ilmiy-filologik merosi

«Majolisun-nafois» (1490-91; 1497-98) tazkisasi turk tilidagi yozilgan dastlabki tazkira bo'lib, unda shoir sakkiz majlis doirasida 459 shoir va adib haqida ma'lumot bergan. Birinchi va ikkinchi majlisda tazkira tartib berilganda hayot bo'lmagan shoirlar, uchinchi majlisda shoirning zamondoshlari, to'rtinchi majlisda beshinchi majlisda Xuroson, oltinchisida Movaraunnahr, Kichik Osiyo va Eron, yettinchi va sakkizinchi majlislarda temuriylar sulolasiga mansub ijodkor shoh va shahzodalar haqidagi ma'lumotlar jamlangan. Asar Fahriy Hirotiy (1521-22), Muhammad Qazviniy (1522-23), Shoh Ali Abdulali (1598) tomonidan uch marta fors tiliga tarjima qilingan.

Navoiy «Muhokamatul-lug`atayn» asarini o'z zamonidagi turkiy lahjalar, ziyolilar nutqi, badiiy va ilmiy asarlarning leksik-grammatik xususiyatlarini forsiy til xususitlari bilan qiyoslashga bag'ishladi. Jonli xalq tilida qo'llanilgan ko'plab so'zlarni asarga kiritib, adabiy tilda qo'llanilishiga sababchi bo'ldi. O'zigacha ishlatilgan so'zlarni yangi ma'no qatlamlarini ochdi. O'zbek tili grammatikasini Mahmud Koshg'ariydan so'ng ilmiy asosga soldi. O'zbek tilining badiiy va estetik imkoniyatlari kengayishiga sababchi bo'ldi. Fors va turk tillarida yaratilgan eng yirik va e'tiborli asarlarga murojaat qildi, shoir va olimlarni til istiqololi uchun kurashga chorladi.

Aruz nazariyasiga bag'ishlangan «Mezonul-avzon» (1492) asarida arab va fors aruzi qoidalarini turkiy tilda aniq va ravon tushuntirdi. Turk yozma va og'zaki she'riyati namunalari vazn xususiyatlarini o'rgandi. Turkiy aruz tabiatini yoritish bilan birga turk she'riyati murakkab aruz tizimini boyitganini anglatdi. Bahrlar va doiralar haqidagi tasavvurni kengaytirdi. To'qqizta yangi vazn va she'riy shaklni aniqladi. Turklik tarixida ilk bor milliy vazn haqidagi qarashlarni ilgari surdi. Navoiyning ilmiy-filologik merosini muntazam tadqiq qilish 20 asrning 20-yillaridan yo'lga qo'yildi. Bu yo'nalishda Fitrat, Oybek, A.Sa'diy, O.Sharafiddinov, A.Hayitmetov, I.Sulton, H.Qudratullaev kabi adabiyotshunos va A.K.Borovkov, O.Usmonov, A.Rustamov kabi tilshunos olimlarning ishlari e'tiborli.

Tarix va iqtisodga oid asarlari

«Tarixi muluki Ajam» («Ajam shohlari tarixi», 1488) qisqa tarix bo'lib, Eron shohlari xronikasi bayon qilingan «Tarixi Tabariy», «Shohnoma» asarlarini mantiqan to'ldiradi, ulardagi faktlarni izchil ilmiy tizimga soladi. Afsonaviy shoh Kayumarsdan sosoniylarning so'nggi vakili Yazdi Shahriyorgacha bo'lgan shohlar tarixini, mifologik talqinini beradi. «Tarixi anbiyo va hukamo» («Payg`ambarlar va hakimlar tarixi», 1485—1498) asarining birinchi bo'limida «Qissasul-anbiyo»lar an'analarini davom ettirib, Odam alayhis-salomdan Nuh, Iso, Muso, Ya'qub, Sulaymon, Yusuf, Dovud kabi payg`ambarlar tarixiga oid qissalar keltiradi. Navoiy Luqmoni hakimga ham anbiyolar qatoridan joy beradi. Asarning «Hukamo zikrida» deb nomlangan ikkinchi bo'limida insoniyat tarixida chuqur iz qoldirgan donishmand hakimlar Fishog`urs, Jomosp, Buqrot, Suqrot, Aflotun, Arastu, Bolinos, Jolinus, Batlimus, Buzurgmehr haqida ibratli hikoyalar keltiradi, ularning donishmandligi, ilmiy kashfiyotlari siri qisqa satrlarda talqin qilinadi.

«Vaqfiya» (1481) asarida vaqf yerlari, mulklari, ularning miqdori, ulardan foydalanish, vaqf mulki va mablag'i evaziga quriladigan bino va inshootlar, bu yo'nalishda madrasa va xonaqohlarda o'rnatilgan tartiblar haqida fikr yuritdi. Navoiy o'z ixtiyoridagi mablag'lar hisobiga qurilgan xayriya muassasalari, ilmiy-madaniy binolar va bog'larni sanab o'tdi. Asar

Navoiy va Husayn Boyqaro munosabatlarini o'rganish uchun ham muhim hujjatli manbadir. Tarix va iqtisodiy yo'nalishdagi asarlari N.Veselovskiy, Yakubovskiy, Ya.G'ulomov, V.Zohidov, B.Ahmedov kabi olimlar tomonidan o'rganilgan. Arab va fors tillaridagi asarlari. Alisher Navoiy fors tilida yozgan she'rlari asosida «Devoni Foni» tuzilgan bo'lib, uning muqaddimasida «Sittai zaruriya» («Olti zarurat») va «Fusuli arbaa» («To'rt fasl») forsiy qasidalar majmualari berilgan. «Sittai zaruriya» to'plamidagi qasidalar «Ruhul-quds» («Muqaddas ruh»), «Aynul-hayot» («Hayot chashmasi»), «Tuhfatul-afkor» («Fikrlar tuhfasini»), «Qutul-qulub» («Qalbdar g'izosi»), «Minhojun-najot» («Qutilish yo'li»), «Nasimul-xuld» («Jannat nasimi») kabi nomlar bilan ataladi. Ular Xoqoniy, Dehlaviy, Salmon Sovajiy, Abdurahmon Jomiy asarlari ruhida, ularga falsafiy-mantiqiy javob tarzida yozilgan. «Fusuli arbaa»da Sulton Husayn Boyqaro madhidan so'ng «Bahor», «Saron», «Xazon» («Kuz») va «Day» («Qish») vafidan iborat. Muammo janri qoidalariga bag'ishlangan «Mufradot» (1485) fors tilidagi ilmiy asarida mumtoz she'riyatdagi bu janrni nazariy jihatdan asosladi. Muammo va uni ifodalangan janrlar ruboiy, qit'a, tuyuq, ayrim hollarda g'azal munosabatini anglatdi. Muammolarni yechish usullarini o'rgatish barobarida 121 ta misol keltirdi. Navoiyning arab tilida «Sab'atul-abhur» («Yetti dengiz») nomli diniy-tasavvufiy ruhda lug'at xarakteridagi asar yozgani ma'lum. Biroq bu asar nashr etilib, yetarli darajada o'rganilmagan. Alisher Navoiyning fors tilidagi merosi Fitrat, H.Sulaymon, N.Mallaev, Sh.Shomuhamedov, R.Vohidov, Boltaeva tomonidan o'rganilgan. Navoiy dahosi tufayli insoniyat tarixida dunyoning turli joylarida yashayotgan turkiy xalqlar yakqalam qilindi, millat ma'naviy merosi umumjahon xazinasidan mustahkam o'rin oldi. Mustaqil O'zbekistonda Navoiyni anglash davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Respublikadagi eng yirik viloyatlardan biri va uning markazi, O'zbekiston Davlat mukofoti, O'RFA Til va adabiyot instituti, opera va balet akademik teatri, O'zbekiston Davlat kutubxonasi, Samarqand Davlat universiteti va boshqa yuzlab madaniy-ma'rifiy muassasalar, jamoa xo'jaliklari ulug' shoir nomi bilan ataladi.

Buyuk so'z sultoni, o'zbek xalqining ulug' shoiri va mutafakkiriga vafotidan keyin yuksak hurmat va ehtirom ko'rsatila boshlandi. Jumladan, Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Respublikasi Davlat mukofoti - O'zbekiston Respublikasining badiiy ijod sohasidagi eng oliy mukofoti, O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti Islom Karimov tashabbusi bilan 1989 yilda 13 sentyabrda ta'asis etildi.

Alisher Navoiy qoldirgan ma'naviy meros - uning nodir asarlari mangulikka dahldordir.

1.2 Navoiy davlat arbobi

Navoiy hayoti davomida juda ko'plab hayrli ishlarni amalga oshirgan. U nafaqat buyuk shoir, balki yetarlicha davlat boshqarishga bilimi va qobiliyati bor bo'lgan yetuk davlat arbobi hamdir. Bu fikrlarimiz tasdig'i sifatida shoirning Hurosonda amalga oshirgan ishlarini keltirish yetarli bo'ladi. Chunki uning bunyodkorlik ishlari barcha xalqlar uchun o'rnnak vazifasini bajara oladi.

Prezidentimiz I.A.Karimov Alisher Navoiy haqida:

Inson qalbining quvonchu qayg'usini, ezgulik va hayot mazmunini Navoiydek teran ifoda etgan shoir jahon adabiyoti tarixida kamdan-kam topiladi.

* * *

Insoniy ishq-muhabbatni, mehru vafo, iffat, sharmu hayo va nazokatni yonib, hassoslik bilan kuylagan Navoiyning go`zal satrlarini o`qiganda buyuk va olijanob qalb sadolarini sezib turamiz. Bu yurak tug`yonlari, mana, oradan besh yarim asr o`tsa hamki, millionlab odamlarni hayajonga solib kelmoqda.

* * *

Ona tiliga muhabbat, uni ulug`lash, beqiyos boyligi va buyukligini anglash tuyg`usi ham bizning ongu tafakkuri- mizga, yuragimizga avvalo Navoiy asarlari bilan kirib kelgan.

* * *

Alisher Navoiyning tarix va bashariyat oldidagi ulug` xizmatlaridan biri shundaki, u adolat tuyg`usini har bir inson, har qaysi xalq va millat intilib yashaydigan oliy mezon darajasiga ko`tardi, odamzodni hayotda adolatni qaror toptirishga, uni asrab-avaylashga chorlab o`tdi.

* * *

Navoiy hazratlarining tom ma'noda xalqparvar shaxs bo`lgani, uning o`lmas g`oyalari bugungi kunlarimiz uchun ham bag`oyat hamohang va ibratli ekani, ayniqsa, ahamiyatlidir.

Alisher Navoiy XX - XXI asr olimlari va yozuvchilari talqinida

Alisher Navoiy dong`i ketgan buyuk shoirgina emas, o`z davrining eng ma'lumotli kishisi, fan va san'atning turli sohalarini asosli egallagan olim va mutafakkir, eng hushyor, eng tadbirli va davlatning istiqbolini ko`ra biluvchi keng qarashli bir siyosatchi ham edi.

Oybek

O`zbek xalqining ulug` shoiri va mutafakkiri Alisher Navoiy jahon adabiyotining buyuk san'atkorlaridandir. Uning nomi va merosi Gomer va Dante, Rudakiy va Firdavsiy, Nizomiy va Shota Rustaveli, Sa'diy va Jomiy, Shekspir va Bal'zak, Pushkin va Tolstoy, Rabindranat Tagor va Lu Sin kabi ulkan so`z san'atkorlarining nomi va merosidek o`lmasdir.

N.Mallaev

O`zbek xalqining buyuk shoiri va mutafakkiri Alisher Navoiy o`lmas "Xamsa" tarkibidagi dostonlari, beqiyos "Xazoyin ul-maoniy"ni tashkil etgan she'riyati, o`n to`rt nomdagi nasriy asarlari bilan adabiyotimizni boyitgan, uni jahon adabiyoti yuksakligiga ko`targan, ilg`or bashariyatning madaniyat xazinasiga ulkan hissa qo`shgan ijodkordir.

S.G`anieva

Adabiy asarning qiymati, o`qishli va o`qishli emasligi birinchi navbatda uning qanday uslub bilan yozilishiga bog`liq. Alisher Navoiy asarlari besh asrdan buyon xalqimiz tomonidan sevib o`qilib kelinayotgan ekan, demak, bu asarlar yaxshi uslub bilan insonga farah bag`ishlaydigan shakl va ohanglarda yaratilgan. Xoh uning she'r va doston lari bo`lsin, xoh nasriy asarlari, xoh ilmiy asarlari, xoh tarixiy asarlari bo`lsin, ularni o`qigan har qanday kitobxon ulardan ma'naviy ozuqa oladi, rohatlanadi.

A.Hayitmetov

Navoiy muqaddas kitoblardagi olamshumul fikrlardan o`z badiiy asarlarida barakali istifoda etib, islom ta'limotining ommalashishiga, ravnaq topishiga o`zining beqiyos ulushini qo`shgan. Islom dini asoslari Navoiy asarlarining badiiy-falsafiy jihatdan barkamolligini ta'minlagan.

M.Mirzaahmedov

Kitobing kirmagan o`zbek elida xonadon yo`qdir,
Ruboiy kuylaring yod bilmagan bir jonajon yo`qdir,
Yetuk avlodlaringdir ilmu donishli, gumon yo`qdir,
Bashar tarixini yuz bor o`qi, bunday zamon yo`qdir,
Ko`ngillarni yoritdik ma'rifatdan mohitob aylab.

G`afur G`ulom

Baytingga bir bora qovushgan har lab,
Takrorlab ketgusi mahshargacha to,

Qaratib turibsan bu yon, ne ajab,
Milliard martabali jahonni hatto.

A.Oripov

Alisher Navoiy dostonlar va nasriy asarlarini asosan umrining so`nggi yigirma yillarida yaratgan bo`lsa, lirik she'rlarini butun ongli hayoti davomida yozgan. Demak, shoir hayotidagi ruhiy kechinmalar o`sha davrning murakkab siyosiy, ijtimoiy hayotidagi turli-tuman voqea, hodisalarga bo`lgan munosabati xuddi aynan lirik she'rlarida o`z ifodasini topgan.

F.Sulaymonova

Navoiy asarlari markazida ezgulik, pok insoniy muhabbat, inson fazilatlarini ulug`lash, tinchlikka, do`stlikka da'vat, vijdon erkinligi singari g`oyalar turadi.

T.Mirzaev

1469 yilda Sulton Husayn iltimosiga ko`ra Alisher Navoiy Samarqanddan Hirotga qaytadi va ramazon hayiti munosabati bilan do`sti sharafiga bitilgan «Hiloliya» qasidasini unga taqdim etadi. Husayn Boyqaro Alisherni muhrdor qilib tayinlaydi va shu paytdan shoirning el xizmatidagi faol jiddi jahdi boshlanadi. Ko`p o`tmay Navoiy muhrdorlikni o`zining yaqin do`sti va fikrdoshi, shoir Amir Shayxim Suxayliya topshiradi. «Bu nozikta`b va zukko Amir 20 yildan ortiq Boyqarog`a mulozim bo`ldi». Lekin Boyqaro do`stining noroziligiga ham qaramay, 1472 yil fevralida uni vazir lavozimiga tayinlaydi va «Amiri Kabir» («Ulug` Amir») unvonini beradi. Bu lavozimda Navoiy el-ulus manfaati, shahar va mamlakat obodonchiligi, madaniyat ravnaqi, adolat tantanasi uchun foydalanadiki, bularning barchasi pirovard natijada Sulton Husayn davlatining barqarorligi va nufuzini ta`minlaydi.

Hirot bu davrda nihoyatda ko`rkamlashdi, xalq turmushi yaxshilandi, she`riyat, nafis san`atlari rivoj oldi. Talabalar uchun «Ixlosiya» madrasasi, darveshlar uchun «Xalosiya» xonaqohi, bemorlar uchun «Shifoiya» shifoxonasi, masjid Jome` yoniga qorixona («Dor ul huffoz») qurildi. Ulug` amirning kutubxonasida 70 dan ortiq xattot va musavvirlar qo`lyozmalarni oqqa ko`chirish, ularni badiiy bezash bilan band edilar. Hirotida yana «Nizomiya», Marvda «Xusraviya» va boshqa madrasalar bino etildi.

Navoiy Madrasa, shifoxonalar qurdirib qo`ya qolmasdan, ularni kerakli darajada jihozlash, o`z-o`zini ta`minlash uchun vaqf yerlar ajratib berish, mudarrislar, tabiblar va boshqa xodimlar bilan ta`minlash, ularga oylik maosh, ozuqa, kiyim-bosh belgilashgacha, talabalar nafaqasi va kitoblarigacha, barcha-barchasini mukammal boshqarib, tashkil etib berar edi va o`zi doimo xabar olib, nazorat qilib turishni ham unutmasdi. Binolar qurilishi tarhi bilan bevosita shug`ullanar, usta va shogirdlar mehnatidan boxabar bo`lib turardi. Shoir o`z huzuriga tez-tez she`r, ilm va san`at ahlini chorlab, ma`rifiy suhbatlar uyushtirib turar, yosh iste`dodlarni tarbiyat qilib, ularga sharoit yaratardi. Xondamir, Behzod, Vosifiy va o`nlab ushbu tarbiyatga noil bo`lgan iste`dod egalari shular jumlasidandir. Shu davr ichida Alisher Navoiy o`z qo`li bilan birinchi devoni «Badoyi ul-bidoya» («Badiylik ibtidosi»)ni tuzdi. Bu devonga uning yoshlik va yigitlik paytlarida yozgan 800 dan ortiq she`rlari jamlangan bo`lib, shoir ijodiy kamolotining birinchi bosqichini aks ettiradi.

Alisher Navoiyga bag`ishlangan tarixiy va ilmiy asarlarda batafsil tavsif qilinishicha, 1469—1481 yillar Alisher Navoiyning ijtimoiy hayot va obodonchilik borasidagi eng faol xizmat ko`rsatgan yillari bo`lgan. Shoir 1481 yili «Vaqfiya» asarini yozib, unda o`zining binokorlik va xayriya ishlariga yakun yasab, o`z-o`ziga hisob bergan.

Navoiy dehqonchilik ishlarini yo`lga qo`yib, juda yaxshi natijalarga erishgan. Tarixchilarning yozishicha, Navoiyning bir kunlik daromadi 18 ming shohruxiy dinor miqdorida edi. Ulug` Amir bu daromadning ko`p qismini xayrli ishlarga sarf qilgan. Tarixchi Xondamir Navoiy qurgan 52 rabot, 20 hovuz, 16 ko`prik, bir qancha to`g`on, ariq, hammom, masjid-madrasalarni eslaydi. Navoiy turli soha olimlariga homiylik qilib, o`nlab ilmiy risolalar bitilishiga bevosita sababchi bo`lgan. Yana shuni mamnuniyat bilan aytish kerakki, Navoiy tufayli o`sha paytdagi siyosiy o`yinlar ham bir muncha kamaygan. Sababi, u doim keshilarni

tinch yashashga faqatgina bunyodkorlik amallari bilan yurishga undardi. Buni, xususan, Venger olimi Vamberi aynan takidladiki, Navoiy o'sha paytlardagi urush hafi bo'lib turgan vaziyatlarni tinchlik yo'li bilan hal qilgan. Bundan ko'rinib turibdiki, Navoiy nafaqat ijodda, baliki davlat ishlarida ham tengi yo'q siymo darajasidadir. Bundan tashqari uning uzoqni ko'zlab qilgan bunyodkorlik ishlari bugun dunyodagi ko'plab xalqlarga o'rnak bo'lmoqda. Masalan, bunga misol qilib uni qurdirgan imoratlarni olaylik, agar biror kishiga biror nima qurishga imkon berilsa ko'pchilik baland bino-yu qasrlar qurishga intiladi. Bunga misol qilib qadimdagi misr piramidalaridan tortib XVI-XXVII asrlardagi qirol saroylari yorqin misoldir. Alisher Navoiy esa ulardan o'laroq boshqalar foydalanishlari uchun obyektlar qurdiridiki bugun barchamiz undan mag'rurlanamiz. Cunki, o'zini o'ylamasdan davlat ishlarida faol ishtirok etib faqat davlatni, xalqni o'ylaydigan davlat arboblari juda kam. Alisher Navoiy anashu kamyob davlat arboblardan biri edi. U nafaqat O'zbekistonda balki, butun dunyoda shunday davlat arbobi sifatida tan oladi.

II BOB. ALISHER NAVOIY ASARLARI VA ULARNING YEVROPADA TUTGAN O'RNI.

2.1. Navoiyning asarlari Yevropada targ'ib qilinishi

Navoiy ijodining targ'ib qilinshi avvalambor O'zbekistonda keng ko'lamlil ishlar bilan chambarchas bog'liqdir. Ma'naviyatimizning shakllanishi, ona tilimiz, milliy adabiyotimiz ravnaqi, yuksak ijodiy-intellektual salohiyatli xalq sifatida jahonga tanilishimizda ulug' shoir, mutafakkir, davlat va jamoat arbobi Alisher Navoiy ijodining ahamiyati beqiyosdir. Milliy iftixorimiz timsoliga aylangan mo'tabar zot tavalludining muntazam nishonlanib kelayotgani bu jihatlarni yana bir bor o'zining yorqin ifodasini topmoqda.

Prezidentimiz Islom Karimov g'oyasi va tashabbusi asosida barpo etilgan Alisher Navoiyning nomi bilan bitilgan har bir joy bugun adabiyot ixlosmandlari bilan gavjum. Ulug' bobomiz tug'ilgan sana munosabati bilan tashkil etilgan tantanali tadbirlargaga O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati a'zolari, Qonunchilik palatasi deputatlari, vazirlik va idoralar, ijodiy va jamoat tashkilotlari rahbarlari, shoir va yozuvchilar, adabiyotshunos olimlar, madaniyat va san'at namoyandalari, ma'naviyat va ta'lim fidoyilari, talaba-yoshlar, keng jamoatchilik vakillari taklif etilib keng nishonlanadi. Bu albatta, Navoiyning keng jamoatchilikkayoyishning yana bir yo'lidir.

O'zbekiston Qahramoni, xalq shoiri Abdulla Oripov, O'zbekiston Fanlar akademiyasi Alisher Navoiy nomidagi Til va adabiyot institutining katta ilmiy xodimi, filologiya fanlari nomzodi, navoiyshunos olim va tarjimon Ergash Ochilov, adib, Davlat mukofotining sohibi Omon Muxtor, yosh shoir Nosirjon Jo'rayev buyuk allomalarimizning bebaho ma'naviy merosini ko'z qorachig'idek asrab-avaylash, umrboqiy an'ana va qadriyatlarimizni tiklash, milliy adabiyotimizni rivojlantirish, navqiron avlodni dunyoda hech kimdan kam bo'lmagan insonlar etib kamolga yetkazish Prezidentimiz Islom Karimov rahnamoligida ma'naviy-ma'rifiy sohalarda amalga oshirilayotgan islohotlarning bosh maqsadi ekanini ta'kidladilar. Davlatimiz rahbarining tashabbusi bilan istiqlolning dastlabki yillarida Vatanimiz poytaxtida Alisher Navoiy nomidagi fayzli bog' hamda shoirning ulug'vor haykali qad rostladi. Shahrimiz markazida Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi hamda Simpoziumlar saroyidan iborat «Ma'rifat markazi»ning muhtasham binosi bunyod etildi. Bobomizning ijodini o'rganish, asarlarini mukammal to'plam holidi chop etish, mazmun-mohiyatini xalqimiz, ayniqsa, yoshlar o'rtasida keng targ'ib va tashviq etish yuzasidan keng qamrovli ishlar amalga oshirilmogda. Buyuk mutafakkir asarlaridan iborat dastlab yigirma jildlik, so'ngra o'n jildlik to'plamning nashr etilgani bu yo'nalishdagi ezgu ishlarning yaqqol namunasidir. Shoir asarlarida ulug'langan ezgu g'oyalarning bardavomligi mamlakatimizda Mustahkam oila yili, deb e'lon qilingan joriy yilda

xalqimizning farovonligini oshirish, sog'lom va barkamol avlodni tarbiyalash, onalik va bolalikni himoyalash, aholi salomatligini mustahkamlash, oilalarni qo'llab-quvvatlash, ota-onani e'zozlash, yoshlarga mehr va e'tibor ko'rsatish singari ibratli ishlarda o'z ifodasini topmoqda. Shuni g'urur bilan ayta olamizki O'zbekistonda bu buyuk siymo ijodini targ'ib qilish uchun sezilarli ishlar amalga oshirildi. Xususan, "O'zbek mumtoz adabiyoti namunalari"ning 2003 yilda nashr etilgan birinchi jildi (tuzuvchilar - professorlar Nasimxon Rahmon va Hamidulla Boltaboev) so'zboshisida o'zbek adabiyotining (umuman, qadimgi turkiy adabiyotning) ilk davri to'g'risida fikr yuritilib, milodning V asridan boshlab adabiyotda alohida burilish yuz bergani ta'kidlanadi va shu sababli o'zbek yozma adabiyotini X asrdan - "Qutadg'u bilig"dan boshlab emas, balki milodning boshlaridan o'rganish lozim, degan mulohaza bildiriladi. Bu ham, shubhasiz, o'zbek adabiyotining jahondagi qadimiy adabiyotlar sirasiga kirishini tasdiqlab turibdi. Shu nuqtai nazardan kelib chiqib, o'zbek adabiyoti namunalari ingliz tiliga qilingan tarjimalar tarixini o'rganish asnosida, ikki jihatga e'tibor qaratishni joiz deb hisobladik.

Birinchidan, adabiyotimiz namunalarini ingliz tiliga, nafaqat ingliz tiliga, balki boshqa tillarga ham tarjima qilish shu paytgacha rejali yo'sinda olib borilmagan, aslida, bu yerda rejani talab qilish ham o'rinsiz, tarjima ham ijod, ijodni esa rejaga solish mushkul. Aksar hollarda, biron adib yoki shoirning yubileyi yoki adabiyot kunlari, umuman olganda, biron sabab bilan tarjimalarga qo'l urilgan. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi huzurida "Ijod" fondini tashkil etish to'g'risidagi 2010 yil 26 fevraldagi qarorida uyushma oldiga "...xalqimizning qadimiy tarixi, boy madaniyati, asriy an'ana va qadriyatlari tarannum etilgan, milliy ma'naviyatimizning mazmun-mohiyati teran badiiy ifodasini topgan mumtoz va zamonaviy adabiyotimiz munosib namunalarining xorijiy tillarga tarjima qilinishini hamda Internetda keng targ'ib etishni" muhim vazifa qilib qo'yadi. Bunday mo'tabar hujjat ijodkorlarni ilhomlantirishiga, adabiyotimizning badiiy pishiq asarlarini xorijiy tillarga tarjima qilishda katta ahamiyat kasb etishiga shubha yo'q.

1958 yilda Moskvada ingliz tilida "Uzbek poetry" ("O'zbek she'riyati") nomida ko'p asrli o'zbek she'riyatining muxtasar antologiyasi nashr etildi. Nazarimizda, bu nashr antologiya sifatida inglizchaga tarjima yo'sinidagi ilk qadamdir. Kitobga o'n to'rtta o'zbek shoiri (3 shoir mumtoz adabiyot, 11 shoir zamonaviy she'riyat vakillaridan)ning ijodidan namunalar kiritilgan edi. Kitob adabiyotshunos olim Izzat Sultonning "A few words on Uzbek poetry" ("O'zbek she'riyati haqida bir necha so'z") nomli so'zboshisi bilan ochiladi. Unda olim ko'p asrlik o'zbek she'riyati haqida ingliz o'quvchilari uchun yangilik bo'lgan ma'lumotlar berib o'tadi. Xususan, Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" nomli didaktik asari, Yassaviy, Qutb, Xorazmiy, Durbek, Atoyi kabi shoirlar ijodi, Lutfiyning "Gul va Navro'z" dostoni borasida fikr yuritadi. Buyuk tafakkur sohibi, shoir va davlat arbobi Alisher Navoiyning "Xamsa", "Xazoin ul-maoniy" (muallif maqolada "Chordevon" deb yozadi) kabi kitoblariga kiritilgan dostonlar va g'azallar hozirda nafaqat sharqni, balki g'arbni ham bahramand qilib kelmoqda.

Inglizlarning sharq sheriyatiga qiziqishi kecha yoki bugun paydo bo'lgan emas. Sharq adabiyotining g'arbga yoyilishi sharqona g'oyalar, motivlar, obrazlarning g'arbga ko'chishi uzoq tarixga ega. XV-XVI asrlarda g'arb adabiyotida sharqqa intilish kuchaydi. Bu davrda Sharq adabiyotining ko'plab durdona asarlari g'arb tillariga tarjima qilindi. Natijada XVIII asrda Yevropa o'zi uchun sharq adabiyoti degan yangi bir olamni kashf etdi. Bularning barchasi g'arbdagi sharq klassikasiga bo'lgan munosabatlarni o'zgartirib yubordi. 1843-yili Fransiyaning shimoli sharqiy qismiga joylashgan Nausi shaxrida sharqshunoslik maktabining asoschilaridan biri Gustav Dugat "Orientalisme rende classique" (Sharqshunoslik-unitilgan klassika) nomli qollanma yaratdi. Unda muallif gumanitar fanlar rivojida ochilgan antik durdonalarni hal qilish uchun faqatgina grek va lotin tilini etarli emasligini isbotladi va sharqni o'rganishga chaqirdi.

Sharqni o'rganishning muhimligi va shoir sheriyatining o'ziga hosligi haqida Braginskiy quyidagilarni yozadi. "So'zlarning ko'p mano va mazmunga egaligi sharq sheriyati uchun hos hususiyat hisoblanadi. Qadimdan shu sheriyatda har bir sher va bayt atrofida tortushuvlarni

keltirib chiqaruvchi va izohlovchilarni yoʻldan adashtiruvchi kinoya va majoz oʻyinlari, ishora, pafosi, soʻzning sermanoligi mavjud”.⁵ Ehtimol shular gʻarbning sharq adabiyotiga boʻlgan qiziqishini yanada kuchaytirgandir. Misol uchun, nimaga Alisher Navoiyning “Farhod va Shirin” dostoniga qiziqish katta? Bu savolga tarjimashunos olim M. Karimov shunday javob berdi: “Chinakam gumanizm boshqa millat va elat kishilariga hurmat erksevarlik motivlarini kuylanishi, milliy va umuminsoniy gʻoyalarning tarannumi bu dostonida yorqinroq nomoyon boʻlganligi, dostonning asosiy gʻoyaviy yakuni oʻzida tashuvchi chinlik Farhod, xotin qizlarning jasur vakillari-arman qizi Shirin va Mehinbonuni, nihoyat Farhodning sadiq doʻsti va maslahatgoʻyi iqtidorli rassom eronlikShopur oʻratasida qardoshlarcha doʻstlik mavzusi asarning boshidan ohirigacha qizil ip yangligʻ oʻtib turishi chet ellik tadqiqotchilarni hayron qoldirgan boʻlsa ajab emas”. Shunday tadqiqotchilardan biri A. Kurelladir. Darhaqiqat, A. Kurella Navoiy ijodi bilan tanisha boshlagan yillarda “Farhod va Shirin” dostoni jamoatchilik orasida muallifning eng zoʻr dostoni sifatida mashhur boʻlgan edi. Sababi tarjimonlarning oʻziga tortgan jihatalridan yana biri asarda tabiyat manzaralari, ikkinchidan Navoiyning usta peysaj yaratish mahorati, uchinchidan tabiat fasllaridagi tasviridagi ranglarning xilma xilligi va ularni har birini faslga mos jilolanishi, toʻrtinchidan, shoirning radif, hojib kabi bir talay badiiy sanatlardan foydalanganligidir.

Sharq adabiyotidan inglizlashtirilgan kuzatish shuni koʻrsatdiki, sharq adabiyoti yetakchi mutafakkirlari Nizomiy, Fuziliy, Firdavsiy, bour, Imomiddin Nasimiy, Fozil Burhoniddin Haqiniy, Hasan Chalabiy, Ahdi Bagʻdodiy, Xatoiy, jaloliddin Rumiy, Anvari, Mirza Gʻoliblarning asarlari alohida nashlarda ingliz jamoatchiligi orasida keng tarqalib ketgan bir paytda jahon adabiyoti hazinasiga ulkan hissa qoʻshgan koʻplabdaholarni yetishib chiqishiga sababchi boʻlgan ulkan shoir 1940-yilgacha gʻarbiy yevropa, xususan, ingliz xalqi orasida etarlicha targʻib qilingan. Yuqoridagi fikrlarda kelib chiqadigan xulosa shuki, Navoiy asarlari qoʻlyozmalari shorning tiriklik davridayoq Ozarbayjon, Eron va turkiya kabi kabi bir talay mamlakatlarda tarqalgan. Yevropa tillariga tarjima qilingan Navoiy asarlari koʻp mudaddat qaysi manbaga asoslanganligikoʻrsatilmaganligi sababli Yevropa ahlining diqqatini oʻziga tortgan va bir necha bor qayta nashr etilgan mazkur asarlarning muallifi kimligi toki XX asrning boshlarigacha jumboq boʻlib keldi. Ilmiy izlanishlar natijasida prof. Betels Xristofor Armaniniyning oʻz tarjimasining birinchi qismini Xisrav Dehlaviyning “Hasht bexisht” ikkinchi qismini Alisher Navoiyning “Sabbai Sayyor” dostonidan tarjima qilganligini ilmiy asoslab berdi. Yevropada Navoiyga qiziqish asosan XIX asrdan boshlangan boʻlib bu Vamberi nomi bilan uzviy bogʻliqdir. Vamberi unda keyin toki 1940 yilgacha Navoiyning ijodi Evropada, xususan ingliz xalqi orasida etarlicha targʻib qilinmadi.

2.2 Tarjimalar tadriji

Hech bir milliy adabiyot faqat oʻz doirasidagina –boshqa xaqlardan ajralgan rivojlana olmaydi. Milliy adabiyotlararo taʼsir oʻzaro aloqasi bir birini boyitish ,bir tilda yaratilgan asarni ikkinchi tilga tarjima qilish orqali ham amalga oshadi. Buyuk oʻzbek shoiri mutafakkiri Alisher Navoiy ijodi esa jahon soʻz sanʼatining alohida sahifalarini tashkil etadi. Navoiy asarlarini boshqa tilga tarjima qilish XV asrdayoq boshlangan. “Majolis un-nafois”ni 1522-1523-yillar Muhammad gʻaznaviy oradan yarim asr oʻtgach esa Shoh Ali bin Abdul Ali nishopuriylar fors tojik tiliga tarjima qilganlar. Alisher Navoiyning gʻazal, ruboiy, qasida, xususan, dostonlari keng tarqala borgan sari ularni ularni oʻrganishga qiziqish ham kuchayaverdi. Bu esa shoir

⁵ Abdullajanov A. Navoiy badiyatini nemischaga qayta yaratishni tadbil etish. Toshkent 1998.

asarlarning tili, poetik ifodalari sharhi va izohi uchun lug'atlar yaratishga sabab bo'ldi. Natijada shoir vafotidan sal o'tgach "Badoe ul-lug'at", "Lug'ati Navoiy" XVI asrda Turkiyada Abushqa, XVIII asrda "Sangloh", shuningdek, "Al-lug'at al-lison an-Navoiy" kabi lug'atlar dunyoga keldi. Bu lug'atlar darchasi Navoiy asarlarini boshqa xalq vakillariga tushuntirish ilinji bilan yaratilgan. Demak, ularni ham navoiyni tarjima qilishga intilish sifatida baholash mumkin.

Shoir ijodiga bo'lgan qiziqish davr o'tishi bilan ortib bordi. Tarjimachilik rivojlanishi natijasida dunyodagi talay xalqlar Navoiyning jozibador asarlarini o'z ona tillarida o'qiy boshladilar. Shoir asarlarning inglizcha asarlari uzoq tarixga borib taqaladi. Navoiy asarlari ingliz tiliga turli yo'llardan kirib borgan, xususan boshqa yevropa tillariga qilingan tarjimari salmoqli o'rin tutadi. Aytaylik bir paytlar ruscha tarjimalar bevosita vositachilik vazifasini bajargan bo'lsa, so'ngra, shoirning asarlari asl nushadan inglizchaga tarjima qilish orqali inglizlashtirildi. Bu o'zbek turmush tarzini, sharqona urf-odatlarini o'zga yurt kitobxonlariga yetkazishda jiddiy ahmiyatga ega bo'ldi.

Navoiy ijodini ko'plab olimlar tadqiq etib kelmoqda. S. Olimovning nomzodlik dissertatsiyasida Navoiy asarlarini rus, tojik, va ozybayjon tillariga qilingan tarjimalarimisolida sharq klassik poetikasi, asosan, badiiy san'atlarini qayta yaratish muammolari o'rganildi, jumladan badiiy san'atlar tarjimarining janriy muamolari tahlil etildi. To'g'ri S. N. Ivanov, A. A. Klemenko, Q. Jo'rayev, G'. G'ofurova, F. Salomov, M. Murodovlar Navoiy asarlarini tarjimalari bo'yicha ish olib bordilar, biroq ular mazkur masalaning muayyan jihati, u yoki bu asari, qaysidir bir tilga tarjimasini tekshirdilar.

Alisher Navoiy ijodi yevropaga turli yo'llar bilan kirib bordi. 1557-yili Venetsiyada italyan tilida "Pregri nagsio di tre giovana figliuoki del Re di Sereudippo per opera Christoforo Armena della Persiana nelli Italyana linguafrapportato", ya'ni "Shoh Sarandipning uch navqiron o'g'lonlarining qanday qilib ziyoratga borgani, janob Xristofor Armani forsiydan italyan tiliga o'g'irgan" nomi ostida bir kitob nashr etilgan. Bu kitob yevropa kitobxonlari orasida katta qiziqish uyg'otdi va 1584-yili ikki marta bosildi. Keyinchalik 1611-1622 va 1625-yillarda qayta-qayta chop etildi. 1883-yilda an shu italyancha tarjima asosida bu asarni yohan Betsil nemis tiliga o'girdi. Keyinchalik bu asar yevropa boylab keng tarqaldi va nihoyat, 1768-yili ingliz tiliga tarjima qilindi. Bundan tashqari 1719-yili Fransiyada fransuz tiliga, 1966-yili folland tillariga ham tarjima qilindi. Bu asar ikki qismdan iborat bo'lib birinchi qismi Sarandip shohi o'zining uch o'g'loni oqilu dono qilib tarbiyalangani hikoya qiladi.

Xristofor o'z tarjimasini qaysi asardan o'g'irganligini ko'rsatmagan. Xatto Xristofor Armaniyning o'zi haqida ham aniq malumot yo'q. Italyan tilidagi sarlavha asar fors tili (lingua persina)dan o'g'irganligi yozilgan(O'sha paytlarda ozarbayjon tili fors tili (lingua persina) deb atalgan. Shu sababli asar muallifini aniqlashning iloji bo'lmagan. Faqatgina muqaddimada bu kitob muallifi tavriz shaxridan ekanligi ko'rsatilgan-bu Eronning Tabriz shaxridir. Benfiyning asliyat muallifini aniqlashda adashganligini Y. E. Bertels shunday izohlaydi. "Buning ajablanarli joyi yo'q. Navoiy asarlaridan o'ta muvaffaqiyat bilan foydalangan asarlar qo'lyozmasi shoirning tiriklik davridayoq Turkiya va Ozarbayjonga yetib borgan va asrlar mobaynida barchaning etiborini tortgan"

Guruzin shoiri Sitsushbining "Yetti go'zal" asari ham Nizomiyning emas balki Navoiyning asari asosida yaratilganligi ham vaqt o'tishi bilan aniqlandi. Buni Prof. K. Kekelidze ko'rsatganidek, B. T. Rudenko to'liq tasdiqlagan. Bu asarni birinchi bo'lib Y. E. Bertels aniqlagan. Olim bu haqida shunday mulohaza yuritadi. Xristofor kitobining birinchi qismida Amir Hisravning "Xasht bexisht" asari manba bo'lgan bo'lsa kitobning ikkinchi qismidagi "Bahrom va Dilorom" voqeasiga kelsak, bunga mutloqo Navoiyning "Sabbai Sayyor" dostoni manba bo'lgan, chunki Bahrom va Dilorom voqeasining bunday talqini faqat Navoiyning "Sabbai Sayyor" dostonida bor. Boshqa asarlarda bu dostondagidek o'xshash voqealar hozirga qadar topilgan emas.

Xristofor Armanining Navoiyning “Hamsa” siga kiritgan “Sabbai Sayyor” Dostoni bilan tanish bo’lgan. Shunday qilib Alisher Navoiy vafotidan 56 yil o’tib Xristofor Armaniyning italyancha tarjimasini orqali yevropa mamlakatlariga kirib bordi. Koppina manbalarda ko’rsatilishicha Yevropa mamlakatlarida Alisher Navoiy ijodiga qiziqish asosan XIX asrdan boshlangan. Jumladan 1841-yili Fransuz sharqshunos olim Katremer Eten Mark (1782-1857) Alisher Navoiy asarlariga murojat etdi hamda u shoirning “Muhokamat ul-Lug’atayn” va “Tarixi muli ajam” asarlarini fransuz tiliga o’girib sharq-turk bayozida chop ettirgan bo’lsa, 1861-yili Fransuz sharqshunosi M. Bellning “Navoiy hayoti” nomli maqolasi chiqdi. Alisher Navoiyning asarlari Yevropa mamlakatlari, hususan, ingliz kitobxonlariga yetib borishida Venger turkshunos olimi va sayyohi Vengriya fanlar akademiyasi muxbir azosi Prof. Herman Vanberining(1832-1913) katta o’rni bor. U ko’p tillarni bilgani sababli Alisher Navoiy asarlarini nafaqat ingliz tiliga balki boshqa yevropa tillariga ham tarjimalar qildi. U 1863-yili musulmon hoji niqobi ostida Eron orqali O’rta Osiyoga sayohat qilgan. Safardan qaytgach XIX asrning 60-yillaridagi O’rta Osiyo xalqlarining tarixiy, ijtimoiy munosabatlari, turmush va madaniy hayoti haqida asarlar yozdi. Vamberi vatanimizni madaniy boyliklarini Yevropa ahliga malum qilish maqsadida navoiyning qo’lyozmalarini axtarib Turkiyaning sahro va o’tloqlarini yalang oyoq, darvesh qiyofasida kezib til va adabiyotga oid qimmatbaho manbalar to’pladi. U o’zining mumtoz turk adabiyotidan dastlabki tarjimarini 368 sahifadan iborat darslik majmuaga kiritgan. “Chig’atoy darsligi” deb nomlangan bu kitob tadqiqot, majmua va lug’at qismlardan iborat. Bu darslik kitobda olim Navoiyning “Mahbub ul-qulub”dan parchalar, ruboiy va g’azallar namunalar kiritgan. Vamberi Xivada Alisher Navoiyni o’zlarini ustoz deb bilgan zabardast shoirlar Munis va Ogahiy bilan muloqatda bo’ladi. Ulardan Navoiy ijodi haqida yetarlicha malumot oladi. O’rta Osiyoga sayohat qilishdan bir yil avval, ya’ni 1962-yil Vamberi Alisher Navoiy asarlari yuzasidan tuzilgan, uning asarlaridan olingan, qisqa qisqa parchalardan iborat “Abushqa” lug’ati venger tiliga tarjima qilib chop etdi. Pesht shaxrida bosilgan 107 sahifadan iborat bu kitobga, venger tilshunosi Budens Yoju(1836-1892) kirish sozi yozgan. Venger tilida bosilgan bu lug’atdan ko’chirma tilshunos olim Ergash Umarovning shaxsiy kutubhonasida saqlanmoqda. Vamberi sayohatidan qaytgach o’z tadqiqotlarini jamlab “Orta Osiyo ocherklari” kitobini birinchi bor o’quvchilarga taqdim etdi. Biroq kitobda berilgan malumotlar to’la bo’lmagani sababi o’z zamondoshlari tomonidan tanqidga uchradi. Tanqiddan to’g’ri huloosa chiqargan Vamberi 1868-yil bu kitobni ikkinchi marta chop etdi. Bu nashrda u avvalgi nashrda yo’l qo’yilgan xatolar va kamchiliklarga barham beradi. U kitobning O’rta Osiyo adabiyoti bobida Nizomiy, Navoiy, Fuzuliy va mashrab g’azallaridan tarjimalar hamda “Qissasi Sayfulmuluk” asaridan bir parcha keltiradi. Biroq bu kitobda ham ba’zi bir hatolarga yo’l qo’yadi. Chunonchi, Navoiyning “Layli va Majnun” dostonini dastlab “Majnun va Layli” deb nomlagan, “Qissasi Sayfulmuluk” asarini navoiyning asari deb ko’rsatgan. N. Ismatullayev uning mashu xatolarini ko’rsatib Vamberi o’zining “Orta Osiyo ocherklari” kitobini yozgunga qadar Alisher Navoiy asarlari bilan to’la tanish bo’lmaganligini aniqladi.

Yana olimlardan biri Alfred Kurella Navoiy haqida maqola yozdi. Ushbu maqola “International literature” jurnalining 7- sonida bosilib chiqdi. O’sha yillar bu maqola L. Koshki tomonidan rus tiliga tarjima qilindi. A. Kurella ushbu maqolasida Navoiy merosiga 1940-yilgacha bo’lgan qarashlarni tahlil qildi va shoir ijodini yuksak baholadi. Uni yozishicha 1841-yili Yevropa sharqshunoslari ulug’o’zbek mutafakkiri faoliyatini yoritishga bag’ishlangan bir necha maqolalar elon qildilar. Biroq bu mualliflar shoir ijodiga biroz etiborsizlik bilan qaradilar. Holbuki, Alisher Navoiy o’tgan asrlarning o’rtalarida yevropa fanlarida yaxshina tanilgan edi. Barcha katta kutubhonalarda, ayniqsa, Parij, London va Venada uning sheri va nasriy asarlari, qo’lyozmalari asaqlanmoqda. Shunga qaramay Navoiy ijodi yevropa sharqshunoslariga forsiy shorlar darajasida tanish emasdi. Xatto sharq sheriya-tidan ilhomlanib o’zining “G’arb-u sharq devoni”ni yaratgan U. B. Gyote ham Navoiy haqida biror so’z aytmagan.

Ikkinchi jahon urushi tufayli Navoiy tavalludining besh yilligi 1941-yilda emas 1948-yili nishonlandi. O'zbekistonda bu tantanaga katta tayyorgarlik ko'rildi. Yubley arafasida shoirning eng sara asarlari jahonning ko'pgina tillariga tarjima qilindi. Shoirning yubleysiga bag'ishlangan bu tantanalar bir necha kun xatto oylab davom etdi. 1968-yili Navoiyning 100 ta hikmatli so'zlari jamlangan bir kitobcha nashr qilindi. Hamid Sulaymon muharrirlik qilgan ushbu kitobda shoirning turli asarlaridan olingan eng yaxshi hikmatli so'zlari jamlangan. Bu hikmatli so'zlar hozirgi va eski (arabiy)o'zbek yozuvida hamda ingliz, rus, fors, nemis, fansuz, italyan va yapon tillarida berilgan. Anashu kitobni biz ishimizda asosiy obyekt sifatida olganmiz. 1989-yil 10-mayda O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi kotibyatining yig'ilishida Alisher Navoiy tug'ilgan kunini 550 yilligini nishonlash bilan bog'liq masalalar keng muhokama etilib, shoir hayoti va ijodini keng targ'ib qilish, asarlarini chop etish, bo'lajak yubley tadbirlarini katta umumxalq bayramiga aylantirish zarurligi ko'rsatib o'tildi. Shu munosabat bilan O'zbekiston Respublikasi Yozuvchilar uyushmasi qoshidagi badiiy tarjima va adabiy aloqalar markazi tashabbusi bilan Alisher Navoiyning ko'plab asarlari turli tillatga o'girish maqsadida maxsus taglamalar tayyorlandi. 1991-yil Navoiyshunos Suyima G'aniyeva navoiyning "Munojot" asari matnini nasr yo'li bilan hozirgi o'zbek va rus tillarga o'girdi hamda o'z tarjimalariga shu yili boshqa tarjimonlar tomonidan amalga oshirilgan shoirlar "Munojot" asarining ingliz, rus, nemis tillaridagi tarjimalarini ham jamlab bir kitob holida chop ettirdi. Navoiy asarlarining ingliz tliga tarjimalari XIX asrning ikkinchi yarmigacha Yevropada yashovchi shoir ijodiga qiziquvchilar tomonidan amalga oshirilgan bo'lsa, undan keyin O'zbekiston shoirlari tashabbusi bilan amalga oshirilmoqda.

O'zbek adabiyoti namunalarining ingliz tiliga qilingan ilk tarjimalari, tabiiyki, Alisher Navoiy nomi bilan bog'liq. Buyuk mutafakkirning "Lison ut-tayr" dostoni Ye.Fittsjerald tomonidan inglizchaga tarjima qilinib, 1899 yilda AQShning Boston shahrida nashr etilgan edi. Xuddi shu asarning nasriy bayoni kanadalik tarjimon Garri Dik tomonidan o'zbek tarjimashunos olimi N.Qambarov hamkorligida ingliz tiliga o'grildi. "Muhokamat ul-lug'atayn" risolasi Robert Deveruks tarjimasida 1966 yilda AQShda kitob holida bosilib chiqqan bo'lsa, buyuk shoirning "Sab'ai sayyor" dostoni amerikalik professor V.Firman tomonidan inglizchaga tarjima qilindi. 1988 yilda O'zbekiston "Vatan" jamiyati Alisher Navoiy hikmatlarini Margaret Bettlinning inglizcha tarjimasida lotin alifbosida chop etgan. 1961 yilda Toshkentda nashr qilingan "O'zbekiston gapiradi" nomli inglizcha to'plamga Alisher Navoiyning g'azallari, ruboiylari, hikmatlaridan namunalar hamda "Farhod va Shirin" dostonidan parcha kiritilgan.

Ushbu bobdan shunday hulosaga kelindiki, Alisher Navoiy asarlari malum bir sabab bilan tarjimalar tadrijini, aytish joiz bo'lsa, kashf qilgan. Chunki davrlar osha nafaqat adabiyotda, balki madaniy sohalarida g'arb sharqqa qizaqa boshladi/ natijada asta sekinlik bilan Navoiy asarlari birma bir boshqa tillarga tarjima qilina boshlandi. A. Kurella, Vamberi davrlarida qiziqish yanada ortdi va asosan Navoiy asarlari nafaqat yevropada, qolaversa butun dunyoga yoyila boshlandi. Bunga yaqqol misol qilib "Muhokamat ul-lug'atayn" risolasi Robert Deveruks tarjimasida 1966 yilda AQShda kitob holida bosilib chiqqan bo'lsa, buyuk shoirning "Sab'ai sayyor" dostoni amerikalik professor V.Firman tomonidan inglizchaga tarjima qilinganini olish mumkin.

III BOB NAVOIY ASARLARNI INGLIZ TILIGA O'GIRISHNING O'ZIGA XOS JIHATLARI

3.1.G'azal poetikasi va tarjima

Alisher Navoiy g'azallarini asliyatdan G'arbiy Yevropa tillariga, xususan, ingliz tiliga tarjima qilish ishlariga endi-endi kirishildi. Chunki aruz vazni ingliz xalqiga begona, aruzda yozilgan g'azallarni inglizlar qabul qilmaydi, degan fikr mavjud edi. Natijada Navoiy

she'riyatini tarjima qilishga bo'lgan urinishlar oxiriga yetkazilmadi. Amalga oshirilgan ayrim tarjimalar nasriy bayonga asoslandi, g'azallar oq she'r bo'lib inglizcha yangradi.

Bugungi kunda G'arbiy Yevropa va Amerika xalqlarining Sharq g'azaliyotiga qiziqishi tobora ortib borayapti. G'azalnavis ingliz shoirlari paydo bo'ldi. 2000 yilda AQShdagi Veyslan universiteti tomonidan chop etilgan «Real Ghazals in English» to'plamiga 150 nafardan ortiq amerikalik shoirlarning inglizcha g'azallari kiritildi. Bu holat o'zbek tarjimonlari uchun Alisher Navoiy asarlarini bor fasohati va falsafasi bilan badiiy go'zal tarzda ingliz kitobxoniga yetkazish uchun zamin shakllanganligidan dalolatdir. Alisher Navoiyning durdona g'azaliyoti G'arbu Sharqni birdek maftun etish darajasida go'zal. Ana shu boylikni bor ranglari bilan keng xorij auditoriyasiga taqdim etish tarjimonlarimiz oldida turgan dolzarb vazifa. Shu bilan birga ulardagi ohang va umumiy ritmni saqlab qolingani tadqiq etuvchi tarjimashunoslik sohasini ham uyg'unlikda rivojlantirib borishimiz zarur. G'arb kitobxonlarida mumtoz adabiyotimizga qiziqish bo'lgani bilan shu paytgacha Navoiy she'riyatidan ingliz tiliga qilingan tarjimalar sanoqlidir. Bu yo'nalishdagi ilk tajriba sifatida 1958 yili Moskvada nashr etilgan «Uzbek poetry» nomli tarjimalar to'plamini ko'rsatish mumkin. Unda Navoiyning «Farhod va Shirin» dostonidan Farhod va Xusrav dialogi va hikmatli so'zlaridan tashqari uchta g'azal tarjimasi kiritilgan.

«Sharq» nashriyotida 2000 yil chop etilgan «Ummondan durlar. G'azallar, hikmatlar va ruboiylardan namunalar» nomli to'plam Navoiy she'riyatini xorijiy o'lkalarga targ'ib qilishda - navbatdagi qutlug' qadam bo'ldi. Unda Navoiy ijodi namunalari asliyatda hamda ingliz va nemis tillaridagi tarjimalari berilgan. Shoir g'azallari inglizchaga tarjimonlar L.Kmetyuk va Q.Ma'murov, nemis tiliga Y.Parda tomonidan o'girilgan. Mana bir necha asrlardan buyon buyuk Alisher Navoiy va uning o'lmas ijodiy merosi butun dunyo tadqiqotchilari, ijodkor va adabiyot muxlislarining aqlini lol qoldirib keladi. Buyuk bobokalonimizning yorqin merosini o'rganuvchi she'riyat ixlosmanlari, tarixchi va adabiyotshunoslar Fransiyada ham kam emas. Alisher Navoiy hazratlari tavalludining 567 yilligi arafasida Fransiyadagi o'zbek mumtoz she'riyatining ixlosmandlari «Editions Georama» nashriyot uyidan ajoyib sovg'a oldilar - «Navoiy g'azallari» to'plami fransuz tilida nashr etildi. Buyuk shoirning insonparvarlik, vatanga va go'zallikka muhabbat, komillikka intilish, rahm-shavqat g'oyalari yo'g'rilgan 30 dan ortiq g'azali ushbu to'plam sahifalaridan joy olgan. Kitob ikki jonboz tashkilotchi - Samarqand davlat universitetining professori Murod Ergashev hamda ko'p yillardan buyon Buyuk Ipak yo'lida joylashgan mamlakatlarning adabiyoti va san'atini tadqiq etib kelayotgan fransuz sayohatchi-san'atshunosi Jan Jak Gate ijodiy hamkorligining mahsuli sifatida dunyo yuzini ko'rdi. Mualliflarning qayd etishlaricha, ushbu to'plam Navoiy g'azallarini bevosita asliyatdan fransuz tiliga o'girish bilan bog'liq loyihaning hayotga tadbiiq etilishidagi birinchi qaldirg'och bo'ldi. Nafaqat Sharqda, balki G'arbda ham e'zoz topgan buyuk shoir va mutafakkir Alisher Navoiyning nomi har bir fransuz ensiklopediyasida qayd etiladi, - deydi J.Gate. – Biroq shu paytga qadar Alisher Navoiyning fransuz tilidagi she'r va dostonlari to'plamining soni kam bo'lgani bois fransuz tilida so'zlashadigan kitobxon va san'at muxlislarining buyuk alloma merosidan bahramand bo'lish imkoniyati cheklangan edi.

2008 yilda Fransiyada nashr etilgan «Alisher Navoiy» Gazels to'plamiga Navoiyning o'ttizta g'azali tarjimasi kiritilgan bo'lib, mazkur tarjimalar o'zbek tarjimoni Murodxon Ergashev va Jan Jakes Gate hamkorligida amalga oshirilgan. G'azal Navoiy lirikasining asosiy orinni egallaydi. Uning 2600 o'zbekcha g'azali mavjud bo'lib, ularning ko'pchiligi turli tillarga tarjima qilingan. Xususan, ingliz tilida bu g'azallar soni anchaginani tashkil qiladi. Ana shu g'azallar tarjimasiga kelsak juda ko'plab bahs munozaralarga duch kelamiz. “Navoiyning har bir baytning zamirida o'nlab ma'no va mazmunlar yashirin, ularning izohi uchun o'nlab talqinlar tug'ilishi muqarrar. Ularning qirralari, chiziq-lari, tovlanishlari, ramzu ishoralari behisob. Bir yo'la qamrab olib bo'lmaydi, dunyoni bir qarashda qamrab yoki bitta talqinda sig'dirib bo'lmaganidek ” Jamol Kamolning ayni bu so'zlari ayni haqiqat. Shoir baytlarini qancha kitobxonlar ommasi o'qisa, shuningdek ko'p xilma xil talqinlar kelib chiqadi. Chunki har bir

kitobhon yoki mutarjim shoir baytlarini o'zi tushungancha, o'z qobiliyatiga ko'ra, kuchi yetganicha talqin qiladi. Shu bois ham navoiy asarlarining inglizcha tarjimalari jiddiy tahlil qilish bu tarjimalarning yutuq va kamchiliklarini ko'rsatib, Navoiydek buyuk zot asarlaritarjimasining o'ziga hos tomonlari tayin etish tarjimalarini yanada mukammallashtirish yo'llarini aniqlash g'oyat muhim ahamiyatga ega. Umuman olganda Navoiy asarlarini turli tomondan tahlil etish yoki bo'lmasam organinsh maqsadga muvofiq bo'ladi, chunki shoir ijodi turli tuman qochiriqlar, ko'chma manolar, so'z o'yinlari bilan yo'g'irilgan. Navoiy g'azallarida lirik qahramon obrazi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ilmiy adabiyotlarda tariflanishicha lirik qahramon deganda lirik asarlardagi ichki dunyosi his hayojoni va kechinmalari ifodalangan shaxs obrazi tushiniladi. Lirik qahramon shoirning umujamiyat uchun qimmatli his va fikrlarni tashuvchi shaxsdir. U shoir shaxsi bilan estetik ideal quyvasidir. Demak, har bir lirik asarda kitobhon bu muallifni bog'lab turuvchi lirik qahramonning bo'lishi shart. Agar poetik mazmun va g'oyada lirik qahramonning boy harakteri, yorqin individualligi, aks etmas ekan sher tasirchanligi jozibadorligi kasb eta olmaydi. Ko'p'na lirik sherlar shoirning nomidan yoziladi. Shu sababli ko'pchilik adabiyotshunoslar, haqli ravishda , lirik qahramon shoirning o'zi deb hisoblanadi. Navoiy ishqiy sherlaridagi lirik qahramon shoirning ijodiy fantaziyasida yaratilgan oshiq Navoiydir. Shuning uchun Navoiy o'zining ishqiy sherlarida anashu ideali bo'lmish lirik qahramon oshiq tilidan gapiradi. She'rdagi badiiyat salmog'i — mazmun, g'oya va ruhiy ta'sir kuchini teran tushunish uchun asarning shakliy tuzilishi, so'zlar, satrlar aro ma'nan, suratdan bog'lanish sehrini ilg'ab olish muhim. Shunday tarkibiy tuzilish badiiyatini ilmda «kompozitsiya» istilohi ifodalaydi. Barcha rubobiy (lirik) asarlar singari, g'azalda ham kompozitsiya tabiiy xususiyat. San'atkor atay kompozitsiya yaratmaydi, muayyan kompozitsiya tanlab, so'igra shu asosda asar yozmaydi. Kompozitsiya — shakl masalasi.

G'azal badiiyati — mazmun va shakl birligi, mutanosibliigi mahsulidir. Shunday ekan, g'azalning bo'lg'usi mazmuni o'ziga xos kompozitsiya bilan birga bunyodga keladi. G'azal kompozitsiyasiga ko'ra to'rt mustaqil turga ajraladi: 1. Mustaqil baytli g'azal. 2. Yakpora gazal. 3. Voqeaband g'azal. 4. Musalsal gazal. G'azal faqat shakliy sayqaldorlikkagina emas, balki badiiy yetuklik, g'oyaviy yuksaklik va mazmun salmoqdorligiga omil bo'luvchi kompozitsion belgilarga asosan shunday turlarga bo'linadi. Bular — g'azalning o'ziga xos kompozitsion tiplari. Har bir tipga mansub g'azallar o'ziga xos kompozitsion xususiyatlari bilan o'zaro farqlanib turadi. O'zbek g'azaliyoti tarixiy tajribalarining eng yuksak natijalari Alisher Navoiy g'azaliyotida mujassamlashgan. Uning devonlarida g'azalning mazkur to'rt turiga oid ajoyib namunalar mavjud. Qayd etilgan tipdagi g'azallarining eng oliy navi musalsal (silsilali) g'azaldir.

Butun borliqni, dunyoni, oz zamonasinining ijobiy va salbiy tomonlarini qamrab olishda fikru o'yinlari kengligi sohasida o'zbek adabiyotida hech qaysi shoirning lirik qahramoni Navoiyni lirik qahramoni darajasida ko'tarila olgan emas. Navoiy g'azallaridagi lirik qahramon o'z davrining madaniyati, aloqa, falsafasi va manaviy dunyosi oynasi hamdir. Qisqasi Navoiy lirik qahramoni o'zgacha bo'lgan o'zbek lirikasini badiiy sentezlashtiradi. Navoiyning lirik qahramoni eng yorqin nomoyon bo'ladigan janr bu g'azaldir. Demak uni ingliz tiliga tarjimalarini ko'rib chiqamiz :

Asli:

Qaroko'zim

Qaroko'zum, kelumardumlug' emdi fan qilg'il,

Ko'zum qarosida mardumkibi vatan qilg'il.

Tarjimasi:

My Dark Eyed One...

Come my dark eyed one come and show your kindness,

Weave a nest for yourself, in the depth of my pupils.

Ushbu tarjimani tahlil qilish davomida shunga ishonchim komil bo'ldiki, o'zbek tilining qanchalik manodorlini va ohangdorligini boshqa tillar bilan taqqoalab bo'lmaydi, sababi, ushbu baytni tarjima qilishda tarjimon bitta so'zni ifodalash uchun to'rtta so'zdan foydalanishga majbur bo'ladi: **Qaroko'zim** o'rniga **My Dark Eyed One**, albatta bu bilan ingliz tilini imkoniyatlarini past deb baholamoqchimasman, chunki bu joyda bu birikmaning o'rniga boshqa maqbulloq so'zni ham tanlasa bo'ladi. Albatta, bu mutarjimdan talab qilinadigan vazifadir. Qolaversa, **emdi fan qilg'il** iborasi **show your kindness** birligidan salgina farq qiladi. **Show your kindness** birikmasi Navoiyning kelanma deb meni "fan" qilgin iborasini bera olmaydi. Albatta, mano jihatidan ingliz kitobhoni tushunishi mumkin lekin, ohangdorligini to'la to'kis his qilolmaydi.

Asli:

Yuzung guliga ko'ngul ravzasin yasa gulshan,

Qading niholig'a jon gulshanin chaman qilg'il.

Tarjimasi:

**Turn the garden of my heart into a flowerbed, for the blossom that is your face,
And the rest your slender form so like the sapling in the garden that is my heart.**

G'azalning bu qismida hali takidlaganimizdek, mazmunan kitobhon tushunib bahramand bo'lishi mumkin. Biroq tarjimaning bu qismida shakl ancha muncha o'zgarib ketgan. Buni bazi sabablar bilan izohlash mumkin. Masalan, malum so'zning manosi ingliz tilidagi so'zga tushmasligi yoki bo'masam o'zbek tilidagi so'zning boshqa so'zga ishora qilib yozilganligi va boshqa bir nechta misollar keltirish mumkin.

Asli:

Takovaringg'a bag'ir qonidin hino bog'la,

Itingg'a g'amzada jon rishtasin rasan qilg'il.

Tarjimasi:

Splash the hooves your brave steed in me heart's blood.

And weave a leash for your dog from the tendons of my sad soul.

Ushbu baytdan ko'rinib turibdiki ingliz kitobhoniga mazmunni yetkazish uchun yetkazish uchun so'zlar o'rinlari almashtirib, boshqa so'zlar qofiyalangan. G'azalning keyingi baytlarida ham shunga o'xshash o'zgarishlar ro'y bergan. Yuqorida takidlaganimizdek bu o'zgarishlar tabiiy, chunki mazmun va shakl uyg'unligini saqlash uchun mutarjimler turli yo'llarni qo'llashadi. Masalan, aynan shu ko'rayotgan g'azalimizda turli yo'llardan borib ingliz kitobhonlariga yetkazilgan. Demak, mutarjimning bayt mazmunini to'la tushinib yetmaganligi sababi tarjimadabayt mazmunini biroz o'zgarish uchragan. Bunday "Dunyolashtirish" keyingi baytlarda ham uchraydi. G'azalning qolgan qismlarida ham shunday o'zgarishlarni ko'rishimiz mumkin.

Asli:

Firoq tog'ida topilsa tufrog'im, eycharx,

Xamir etib yana ul tog'da ko'hkan qilg'il.

Yuzung visolig'a yetsun desang ko'ngullarni,

Sochingni boshdin-ayog' chin ilashikan qilg'il.

Xazonsipohiga, eybog'bon, emasmone'

Bu bog' tomida gar ignadin tikan qilg'il.

Yuzida terni ko'rub o'lsam, ey rafiq, meni

Gulobila yuvu gulbargidin kafan qilg'il.

Navoiy, anjumani shavq jon aro tuzsang,

Aning boshog'lig' o'qin sham'i anjuman qilg'il

Tarjimasi:

**O Heaven, if at the foot of the mountain of separation my dust is discovered,
Knead it into the dough and sculpt from it a powerful stone mason.
If you wish to encapture hearts in love by a meeting with you,
Curl your long hair into ringlets.
There is little the gardener can do to stop the advance of the fall,
Should he even spike the roof of his garden with pine needles.
O my friend, should I suddenly die at the sight of perspiration on your face,
Bathe me in rose water and lay me to rest in a shroud made of rose petals.
Navoi, if you can put your heart all into a bouquet of joy,
Pick a sheaf of wheat and touching a flame to it let this candle be the revelation of the
nosegay.**

G'azalda lirik qahramon aloqasiz biror bayt bo'lmaydi. Chunki g'azalni lirik qahramon boshqaradi. Demak tarjimasidagi har bir o'zgarish lirik qahramonga u yoki bu darajada tasir qiladi. Navoiy ko'plab g'azallarida Ollohga muhabbatini kuylaydi. Biroq shoirning asl maqsadiobrazlar ortida yashirinib tangriga ishqini yorga muhabbat tarzida izhor etadi. Tasavvuf ahli ishqining uch xilini bir biridan farq etadilar:

- 1- Haqiqiy ishq yoki ishq ilohiy-insonning allohga muhabbatidir.
- 2- Majoziy ishq yoki odamning odamga muhabbati.
- 3- Pok ishq yoki yuksak manaviy komolot egalarning pok ko'z bilan, pok go'zalvujudga boqib pok lazzat olishdir.

Demak, mutarjimlarning aslyatdagi bayt, shu bilan birga har bir so'z, ibora anglatgan mazmun obrazlilikni to'la tushunib yetmaganligi tufayli tarjima bayti aslyatga qarama-qarshi fikrni ifodalab kelgan. Xulosa qiladigan bo'lsak, tasavvuf talumotiga ko'ra inson haqiqiy ishq, yani ishq ilohiy orqali asta sekinlik bilan ollohga yaqilashadi. Yuqorida aytib o'tganimizdek, shoir anashu asl maqsadini tasavvuf mano-ishqi, ilohiy yani ollohga muhabbatni obrazlar ortiga yashirgann Nvoiyning tasavvufiy asarlaridagi mazmun mohiyat, go'zal yor, undagi husn, visol va hijrontarnnum etilishi jihatdan oddiy ishq mavzusidagi sherlardan anchagina farq qiladi. Bu tomonda n ingliz tiliga tarjima qilayotgan mutarjimga katta masuliyat yuklaydi. Shuning uchun biz ko'rib chiqqan g'azalda ham mutarjim tarjimasi ko'proq anashu oddiy sherga o'hshab qolgan. Demak, tarjimada shoirning g'azalda ilgari surgan g'oyasiningingliz kitobhonlaariga to'la yetib borishi uchunavvalo mutarjim muallifni o'rtayotganishqning tub mohiyatini, yani haqiqiy va majoziy talqinlardan bohabar bo'lishi o'ta muhim sanaladi. Shoir g'azallarini inglizlashtirganda bayt misraladagi jummalarni aslyatga mazmunan mos kelmaydigan jumlar bilan to'la o'zgartirish orqali tarjimada ijodiy yo'l tutish shoir g'azallaridagi baytlar izchilligini, shoirning his tuyg'ulari va g'oyalarini ozgina bo'lsa ham o'zgartirib yuborgan. Milliy kalimalarni tarjima qilishdan asosiy maqsad, tarjima tilida bu kalimalarning muqobil varianti bo'lmaganli tufayli ingliz o'quvchilaiga to'g'ri va yot bo'lmagan so'zdek yetkazishdir. Ularni tarjima qilganda manba tilidagi imlo va talaffuz shaklini iloji boricha saqlab qolish mutarjimdan talab qilinadigan omillardan biridir. Navoiy o'z g'azallarida lirik qahramon obrazi, lirik qahramon kechinmalari, ichki his tuyg'ularini ifodalashda, g'azalning kompozitsion izjilligini bayt misralarining mantiqiy va uzviy bo'g'laninishlarini tamomlashda, mazmunni chuqurlashtirishda badiiy unsurlardan muhim foydalangan. Misol uchun oladigan bo'lsak tazod sanatidan juda ustalik bilan foydalangan.

3.2 Hikmatli soʻzlar tarjimasini

Hikmatli soʻzlar jahonning koʻpgina xalqlar adabiyotida aforizm (grekcha “aphorus”) dep yuritiladi. Alisher Navoiy hikmatli soʻzlari bir necha bor aforizm nomi bilan chop etilgan. 1968-yildab boshlab esa ular hikmatli soʻzlar nomi bilan chiqa boshladi. Hikmatli soʻzlar hukm soʻzidan olingan boʻlib u yozuvchi yoki shoirning malum voqea va hodisalarga munosabatini va unga nisbatan chiqargan hukmni anglatadi. Ular qisqa, loʻnda va oʻtkir ifodalai koʻrinishidagifikir boʻlib mustaqil ibora shaklida ishlatiladi. Hikmatli soʻzlarga koʻplab tavsiflar berilgan. Uni amerikalik yozuvchi Y. Oljerning tariff berishicha”Hikmatli soʻzlar bilan bitta shakldagi donolik fikr tuygʻularning kuchli javohiridir”.

H. Homidiy, Sh. Abdullayeva va S. Ibrohimovlarning maqollarni hikmatli soʻzlarning bir turi deb qaraydilar. Masalan, M. Hakimovning yozishicha “Hikmatli soʻzlar yoki aforizm deb kelib chiqish jihatdan malum bir shaxsga mansub boʻlgan gʻoyaviy-badiiy jihatdan yuksak darajada turuvchi paandu hikmatomuz iboralarni aytamiz” deydi. N. Hotamov va B. Sarimsoqovlar hikmatli soʻzlarning mualliflari doimo aniq boʻladi, shu beldisi bilan u maqollardan farq qiladi deb tushuntiradilar va xalq maqollarnin ham bu manoda hikmatli soʻzlar deb ataydilar. Hikmatli soʻzlarning maqolga aulanishi Sh. Shorahmedov quyidagicha ifodalaydi, “Biror ibratli iboralarning xalq orasida tarqalib ketishining sababi shundaki nomalun avtorni tasirlantirgan tabiyat yo jamiyat voqea hodisasi boshqalarni ham tasirlantirishi mumkin, natijada ular ham bu soʻzlarni oʻz hotiralarida saqlab qoladilar, oʻrni kelganda qoʻllaydilar.” Shunday qilib muayyan hikmatli soʻzlar folklorlashish jarayoni boshlanadi. Ana shu jaryon davomida hikmatli yanada ichamlashadi, sayqal topadi, poetic formaga kiradi va xalq maqoliga aylanib ketadi. Demak, yuqoridagilardan shuni xulosa qilish mumkinki hikmatli soʻzlar maqollarning boshlangʻich nuqtasi- manbayidir.

Alisher Navoiy alohida hikmatli soʻzlar yaratgan emas. Uning hikmatli soʻzlari turli asarlari ichidan ajratib olingan. Endi shoirning hikmatlisoʻzlari alohida nashrlarga etibor bersak. A. Azizov, A. Mutallibov, Z. Holmatov, S. Ibrohimova, S. Mirzayev va S. Mutallibovlar 1941-yili Alisher Navoiy asarlari ichidan 429 eng sara hikmatli soʻzlarni tanlab olishdi. Bu hikmatli soʻzlar toʻplami alohida kitobcha holida hozirgi oʻzbek tilida chop etildi. Keyinchalik 1947, 1948, 1961-yillardaoʻzbek tilida shoir hikmatli soʻzlari nashr qilindi. 1968-yili ikkita nashrichop etildi. Birinchisi Mutallibov tomonidan oʻzbek tilida, Ikkinchisi H. Sulaymonov muharrirligida oʻzbek, rus, ingliz, nemis, fors, ispan va yapon tillarida, 1988-yili oʻzbek va ingliz tillarida va 1991-yilda ham oʻzbek va ingliz tillarida parallel tekislari tayyorlanib oʻquvchilarga taqdim etildi.

Navoiy hikmatli soʻzlari asrlari ichidan tanlab olinganligi sababli ularni qayerda, qanday holatda va kim tomonidan, nima maqsadda yoki kimga yoki nimaga nisbatan qoʻllanilganini bilmay turib hikmatlarni qiyoslab boʻlmaydi. Chunki tarjimada gap kimning tilidan kimga qarata nima maqsadda va qanday ohangda aytilganligini hisobga olinmasa bunday tarjima har qanday badiiylikdan mahrum boʻladi. Demak, hikmatli soʻzlarning mazmunini bilish uchun ularning mazkur asardagi holatini toʻla bilishimiz lozim. Shuninig uchun biz ularning manbalarini izlab topishimiz muhimdir. Masalan, H. Sulaymonov muharrirligi ostida 8 ta tildagi tarjimasini bilan chop etilgan “Navoiy hikmatli soʻzlari” kitobchasidagi jami 100 ta hikmatli soʻzlarning olingan manbalarini kuzatganimizda ularning 30 tasi (jami 60 misra) falsafiy ahloqiy doston “Hayrat ul-abror” dan, 5 tasi “Farhod va Shirin”dan, 2 tasi “Layli va Majnun”dan, 18 tasi “Saddi Iskandariy”dan, 1 tasi “Lisonut-tayir”dan, 3 tasi gʻazallardan, yana 1 tasi muammosidan, 3tasi qitʻalaridan, 1 tasi ruboiylaridan, 10 tasi “Nazm-ul Javohir” asridan, 3 tasi “Tarihi anbiyo va hukamo”, 21 tasi “Mahbub-ul qulub”dan olingani malum boʻldi. Hikmatli soʻzlarning olingan manbalarini aniqlash mobaynida shu narsa ayon boʻldiki hikmatli soʻzlarning ayrimlari qahramonlar tomonidan muayyan voqea, vaziyat taqozzosi bilan aytilgan. Bazilari bevosita muallif nutqida kelgan.

Masalan,

Dedi: Har ishni qilmish odamizod

Tafakkur birla bilmish odamizod

Hikmatli soʻzlar Navoiyning “Farhod va Shirin”dagi bosh qahramon Farhod tomonidan aytilgan. Hikmatli soʻzlar tarjimasida mutarjimdan katta mahorat talab qiladi. Agar usoʻz mazmunini saqlab shaklini buzsa, gʻaliz jumla tuzsa hikmatli soʻz oʻz tasirini yoʻqotadi. Bordiyu tarjima goʻzal silliq shakllarni saqlab mazmunini lat yedirsu u holda ham maqsadga erisholmaydi. Ham mazmunni ham shu mazmunning mos nafis shaklini loʻnda va ihchamligni uygʻunlikda qayta yarata olsa bu tarjimada sanʼat yaratish boʻladi. Hikmatli soʻzlar tarjimasida mazmun va shakl uygʻunli tarjiimon mahoratini koʻzga usidir.

Sahrq mumtoz adabiyotida sher qofiyasiz boʻlishi mumkin emas. Qofiyasiz sher sochilib ketadi. Qofiya yangi fikrni ifodalovchi misralarni bir –biri bilan qovishtiradi, oldingi misraga qaytarib uni ham eslashga undaydi. Shuningdek qofiya hush ohanglik yaratish va ritmni uyishtirish orqali misiqiylikni taminlashga koʻmaklashadi. Seʼrdagi muhim fikrni takidlaydi, obrazlarni real gavdalantirish uchun xizmat qiladi. Jumladan hikmatli soʻzlardan ham muhim vazifalarni bajarish bilan birga hissiyotni ifodaliligini oshiradi, mazmunini xotirada saqlab qolishga va keyin tez esga olishga yordamlashadi, oʻquvchiga estetik zavq beradi. Navoiy nazmni gulshandagi gullarning saf tortib ochilib turishiga, nsirni esa ularning yerda toʻkilib sochilib yotishiga oʻxshatadi va shakil xaqida yozadi. Shuni ham unitmaslik kerakki agar tarjimon asilyat mazmuniga ahamyatsiz mutlaqo yangi qofiyalarni topishga majbur boʻlsa shoirning gʻoyasi yaqqol oʻzgarib ketadi. Natijada asilyat mazmunini qofiya talabi bilan bir necha oʻzgarishga uchraydi. Masalan, bazi tarjimonlar mazmunni saqlab qolish uchun shaklni oʻzgartirishga majbur boʻlishadi. Misol uchun biz Alisher Navoiyning bazi hikmatli soʻzlarini Margaret Wettlin tarjimasini misolida koʻrib chiqamiz.

Masalan:

**Ilm Navoiy, senga maqsud bil,
Emdikim ilm oʻldi, amal ayladi.**

Tarjimasini:

**To the gaining of knowledge hath thy powers been applied, Navoiy;
Having gained it, let knowledge be thy guide, Navoiy.**

Bu misoldan koʻrinib turibdiki tarjimon manoni saqlash, uni kitobhonga tushuntirish maqsadida shaklni chetlab oʻtib tarjima qilgan. Aslida, bu hikmatli soʻzni boshqacha tarjima qilish ham mumkin edi. Misol uchun, oddiy soʻzlar bilan qisqagina, lekin unda oʻquvchiga tushinishga qiyin boʻlib qolardi. Bu borada shaklni sal oʻzgarib yana mano chiqarishga urinish koʻp tarjimalarda yaqqol koʻrinib qoladi. Biz obyekt qilib olgan Margaret Wettlinning tarjimalarida ham buni koʻrishimiz mumkin. Masalan quyidagi misolda u ohangdorlikni saqlashga uringan va qaysidir manoda unga erishgan.

Asli:

Vafosizda hayo yoʻq, hayosizda vafo yoʻq.

Tarjimasini:

**A false man is shameless too,
A shameless man is never true.**

Biroq, shuni alohida takidlash kerakki ustalik bilan bitilgan bu hikmatli soʻzni shaklini saqlash oʻta mushkuldir. Tarjimondan talab qilinadigani ham anashu uygʻunlikni saqlash qolaversa mazmunni saqlash niyatida shaklni boy bermaslik talab qilinadi. Bu yerda mutarjim maʼnoni tushintirishda **A false man** birligini qoʻllashga majbur boʻlgan. Ayniqsa bu uygʻunlikka quyidagi baytda erishilgan.

Asli:

**Oz-oz o'rganib dono bo'lur,
Qatra-qatra yig'ilib daryo bo'lur.**

Tarjimasi:

**Learning is knowledge acquired in small portions,
As drops make the rivers that flow to the oceans.**

Bu tarjimada shakl ham mazmun ham o'z ornida va mantiqan o'quvchiga yetib boradi. Bundan tashqari, kam o'qib uni asta sekinlik bilan bilimni egallab keyinchalik o'z sohasida masterlik darajasiga erishish mumkinligi, huddi tomchidan daryo bo'lganidek, asta sekinlik bilan qo'lga kiritiladi.. Mazmunan ingliz kitobhoni buni tushinadi, lekin undagi ohangdorlikni har bir so'zini anglashi qiyin albatta. Masalan bu baytdag bazi so'zlar ozgargan, xususan, **dono** tarjimad berilmagan. Shunchaki mazmun va mano saqlash uchun **knowledge acquired** birikmasi qo'llanilgan. Bundan ko'rinib turibdiki, hikmatli so'zni qayta yaratishda har bir detallarga alohida e'tibor bilan qarab uni tarjima qilinayotgan tildagi mos so'zlarni topib ustalik bilan qo'llash lozim bo'ladi.

Navoiy shaklning mazmundan ustun qo'yilishiga qarshi chiqadi shuning bilan birga shaklni mensimaslikni ham qoralaydi. Shakl mukamallikni Navoiy so'z sanatkorning muhim belgisi deb xisoblaydi. Buni yaxshi tushungan rus mutarjimlari maskur hikmatli so'zning misralarni o'zaro qofiyaganlar.

Asli:

**Birovki tama rishtae qilg'usi,
Uning birla bo'g'zidan osilg'usi**

Tarjimasi:

**He who for the theft of a rope is to blame,
Will surely be beaten or hanged by the same.**

Ushbu hikmatli so'zni tarjima qilishda, asosan, tarjimon manoga e'tibor berib, uni tushuntirishga uringan, natijada bazi so'zlarni qo'shishga majbur bo'lgan. Masalan ikkinchi qatordagi **beaten** sozini qo'llab, agar biror kim tamagirlikka yo'l qo'ysa, u albatta jazolanadi degan manoni kuchaytirishga uringan. **Will surely** va **hanged by the same** **birikmalari** baytni ochib berishda katta ahamiyat kasb etgan. Bunga o'xshagan misollarni boshqa misollarda ham ko'rishimiz mumkin.

Asli:

**Izzat tilasang kam de,
Sihat tilasang kam ye.**

Tarjimasi:

**If thou wouldst be honoured, speak less;
If thou wouldst be healthy, eat less.**

Bu hikmatli so'zda agar hurmat ko'rmoqchi bo'lsang kam so'zla, agar sog'lom yashashni istasang ovqatlanishga etibor ber va ozroq tanavvul qil degan manoni bizningcha to'liq ochib berilgan. Bu yerda **speak less** va **eat less** birliklari deyarli to'la qayta yaratilgan, boshqa qismlariyam bizningcha izohga hojat yo'q.

Asli:

**Izzati haddin kam esa xo'b emas,
Xaddidin ortuq dag'i marg'ub emas.**

Ushbu hikmatli so'zda, asosan, hurmat va izzat haqida gap borib, uning kamligi **xo'b emas** ligi ortig'i esa **marg'ub emas** ligi takidlanmoqda. Endi uni inglizchadagi tarjimasiga tiborimizni qaratamiz.

Tarjimasi:

Lack of appreciation is painful;

Over-estimation is shamefull.

Albatta, bu yerda shuni alohida takidlash kerakki, **painfull** so'zi ingliz tilida hissiy va jismoniy azob manolari bor. Asliyatda esa bu **xo'b emas** yani yaxshi emas deb berilmoqda. Shuning uchu bu yerda boshqa so'zlardan foydalanish maqulloroq edi. Buning eng asosiy sababi qofiyani tiklash, yani shakldan voz kechmasdan ohangdorlikni oshirmoqchi bo'lingan. Natijada, mazmuni o'zgarishiga olib kelgan. Quyidagi misollarda ham qofiya etibor berilib mazmuni sal bo'lsa ham ozgargan hikmatli so'zlarni ko'rib chiqamiz.

Asli:

Kimki o'zi ayladi yolg'on so'zin,

Qizb der el chin desa, qolg'on so'zin.

Bu hikmatli so'z hozirda ozgina so'zlari o'zgarib maqol holiga kirib ulgurgan. Bu yerda bir marta yolg'on gapirgandan keyin agar rost so'zlasang ham keyin hech kim senga ishonmaydi mazmunidagi hikmatli so'z quyidagicha tarjima qilingan.

Tarjimasi:

Once a man is known to lie and to deceive,

Though he tell the truth, no one believe.

Tarjimadan ko'rinib turibdiki yolg'on gapirishdan yoki aldashdan tanilgan odam, u rost gapirsa ham hech kim ishonmaydi. Bu yerda **deceive** va **believe** so'zlar qofiyaga asos bo'lgan va ohangdorligini oshirgan. Albatta, ushbu tarjimada tarjimonning so'z tanlashdagi ustaligiga qoyil qolish kerak.

Asli:

Aytar so'zni ayt, aytmas so'zdan qayt.

Bu hikmatli so'zni meningcha deyarli hamma maqol sifatida ishlatadi. Bu juda keng tarqalgan. Uning tarjimasiga e'tibor beradigan bo'lsak, ba'zi o'zgarishlarni ko'rishimiz mumkin.

Tarjimasi:

If it ought to be said, let it be heard;

If better unsaid, mum is the word.

Bu hikmatli so'zni tahlil qiladigan bo'lsak, albatta, tarjimonning **Aytar so'zni ayt** qismini tarjima qilishdagi ishlatgan **If it ought to be said, let it be heard** birliklarini aytib o'tish lozimdir. Chunki, bu qismda shakl ancha boy berilgan. Asosan, tarjimon mazmuni saqlashga urinib, uning shaklini o'zgartirib yuborgan.

Asli:

Jahl ahli bila kimgaki ulfat bo'lg'oy,

Ul ulfati ichra yuz ming ofat bo'lg'oy.

Biz bilamizki Alisher Navoiy so'z tanlashda ustalik bilan foydalanadi. Shoir, asosan, so'zlarning yashirin manolaridan foydalanib ularni o'zaro bog'lab birliklar hosil qiladiki, ularning ohangdorligi, qofiyasi va mazmuni bir butunlik kasb etadi. Xususan, ushubu hikmatli so'zda ham shoir **ulfat** va **ofat** so'zlaridan ustalik bilan foydalanib o'quvchiga zavq bag'ishlaydi.

Tarjimasi:

If anyone chooses a fool for a friend,

Misfortune this friendship is sure to attend.

Tarjimasiga nazar tashlaydigan bo'lsak bu yerda bir tomondan mutrjimning mahoratiga ham qoyil qolmasdan ilojimiz yo'q. Sababi, u ham ustalik bilan **Jahl** so'zini **fool** o'zgartiradi. Vaholanki, fool ni o'rniga **anger** (jahl) **so'zini** qo'llasa ham bo'lardi. Lekin, u hikmatli so'zning asl mohiyatini his qilgan. Chunki bu hikmali so'zdagi Jahl so'zi keng manoda qo'llanilgan, mutarjim esa buni payqab fool so'zini qo'llashga qaror qilgan. Bu esa ingliz kitobhoniga hikmatli so'zning to'laroq yetib borishini taminlaydi.

Asli:

Har kishi kim birovga qazgay choh,

Tushkay ul choh uza o'zi nogoh.

Birovga kim choh qazisa albatta, o'zi tushadi manosidagi ushbu hikmatli so'z nafaqat o'zbek xalqida balki butun dunyoda ham tan olingan maqollardan biridir. Lekin, Navoiy bu manoni bildirish uchun ustalik bilan **qazgay**, **tushkay** fellarini, **choh** va **nogoh** so'zlarrini qofiyalantirib ajoyib tarzda uyg'unlashtirgan. Endi uning tarjimasiga ko'rib chiqsak.

Tarjimasi:

**He who digs a hole for others as a snare,
Himself will find entombment there.**

Bu tarjimada mutarjim uchun qiyinchilik tug'diradigan so'z bu **choh** so'zi edi. Chunki choh so'zi o'zbek tilida aynan insonlar qiyin ahvolga tushishi, qiyinchiliklar girdobiga duch kelgan vaziyatdir. Ingliz tilida esa aynan shu so'zining o'zi yo'qligi uchun tarjimon **a hole** va **as a snare** so'zlarini qo'lladi. Bu so'zlar, albatta, o'zbek tilidagi choh so'zini tushinishga yordam beradi. Quyidagi misolda tarjimonning qanchalik mohirlik bilan so'zlarni qo'llaganiga guvoh bo'lamiz.

Asli:

**Qachon sochsa tuproqqa bug'doy birov,
Yo'q imkonki ul arpa qilg'oy g'arov.**

Har kim ekkanini o'radi manosidagi ushbu hikmatli so'zda Navoiy **bug'doy birov** va **qilg'oy g'arov** birikmalarini qo'llagan holda tasirchanlikni oshirgan. Qayta yaratishda tarjimonga qoyil qolish kerakki, u qofiyani ushlab qolib tasirchanlikni ingliz kitobhoniga to'la tokis yetkazishga harakat qilgan.

Tarjimasi:

**If it is oats you sow,
It is oats that will grow.**

Tarjimon bu hikmatli so'zni manosini ochib berishda **sow** va **grow** so'zlaridan oqilona foydalanib tasirchanlikni oshirgan, lekin bir narsani takidlash joizki, **qilg'oy g'arov** birikmasiga **grow** ya'ni **o'stirmoq** so'ziga unchalik tushmaydi va tarjimon **bug'doy** va **arpa** so'zlarini o'rniga faqat **oats** so'zini qo'llagan, lekin ingliz kitobhonlariga manoni tushunishda hech qanday qiyinchilik tug'dirmaydi. Sababi, hikmatli so'zning ma'nosi, deyarli tarjimon anglaganidek, har kin ekkanini o'radi qabilidagi maqolga aylanib ulgurgan birlikdir. Quyidagi misolda maqolga aylangan hikmatli so'zlarni ko'rib chiqamiz.

Asli:

Tilga ixtiyorsiz, elga e'tiborsiz.

Alisher Navoiy til haqida ko'plab fikrlar bildirib uni insonlar o'rtasida o'ta muhimligini takidlaydi. Bu hikmatli so'zida ham agar tilini mensimasdan qaralsa ma'lum xalqning o'ziga ham hurmatsizlik bilan qaralgan bo'ladi deb hisoblaydi. Endi uning tarjimasiga nazar tashlasak.

Tarjimasi:

**In speech be circumspect
If thou wouldst have respect.**

Ma'noni ochib berishda mutarjim doim turli yo'llarni qo'llaydi, xususan Margaret Wettlin ham ushbu hikmatli so'zni ochib berishda umumiy manoga etibor qaratgan. Tarjimaning birinchi qismida **be circumspect** birikmasi aynan aslidagi manoni to'la to'kis anglatadi, lekin ikkinchi qismida o'zgarishni ko'ramiz. **have respect** birikmasi esa birinchi qismiga qofiya sifatida qo'llagan, lekin menimcha elga so'zining tarjimasini chetlab o'tishga majbur bo'lgan. Bu esa, albatta, ingliz kitobhoniga asliyatdagi manoni to'la to'kis bahramand bo'lishni cheklaydi.

Demak hikmatli so'zlarning ingliz tiliga o'g'irganda shakl, mazmun va ritm 2- darajali deb, faqatgina mazmunga etibor berish hikmatli so'zning vaznini buzadi, kompozitsasiga shikast yetkazadi, ritmni pasaytiradi va ohir oqibatdahikmatli so'zning tasir kuchini yo'qqa chiqaradi. Hikmatli so'zlarning tarjimasida qofiyaning asliyatdagishaklini saqlamaslikqofiyalaninish shartlarini yengillashtirish asliyatdagi qofiyalash usuliga mos kelmaydigan shakldagi

qofiyalanish turlari bilan berish hkmatli so'zlarning ohangdorligini o'quvchig emotsional tasirini kamaytiradi. "Bu jajji " janr uchun fikr, yani mazmun birlamchiligi tarjimonga shakl tanlashda erkinlik beradi, albatta. Biroq, bu hikmatli so'zlar tarjimasida mazmun va shakl uyg'unlugiga erishish zarurligini inkor etmaydi.

Yuqoridagilardan shunday hulosaga kelish mumkinki ingliz tarjimoni hikmatli so'zlar tarjimasida aniqlikka erishish maqsadida turli usullardan foydalangan. Ingliz kitobhoniga mazmuni to'la bo'lmasa ham malum manoda yetkazishga erishgan. Iloji boricha har ikki til o'zining barcha qonun qoidalarini inobatga olishga harakat qilgan. Navoiyning hikmatli so'zlarining tarjimalarida sharq va g'arb adabiyotlarining mushtarak mahsuli yanglig' paydo bo'lgan. Biroq qofiyani qayta yaratishda ingliz adabiyoti qonun qoidalariga moyillik seziladi.

Xulosa

Malumki jahon adabiyotida Sharq shariyatiga qiziqish asrlar davomida so'nmagan. Bu qiziqish XX asrda yanaada kuchaydi. Shu bois bugungi kunga kelib, Sharq shoirlari asarlarining g'arb tillariga jumladan, inglizchaga tarjimalarini tahlil qilish, bu sohada to'plangan tarjimalarini umumlashtirish, ilmiy huloosalar chiqarish o'zbek tarjimashunosligi oldida turgan dolzarb vazifalardan biri bo'lib qolmoqda. Adabiy asarlar mazmuni, vazuifasi, tasviriy vositasihajmi va ba'zi tashqi jihatlarini bilan bir biridan farqlanadi.

Prezidentimiz Islom Karimov ta'kidlaganidek, Alisher Navoiy xalqimizning ongi va tafakkuri, badiiy madaniyati tarixida butun bir davrni tashkil etadigan buyuk shaxs, milliy adabiyotimizning tengsiz namoyandasi, millatimizning g'ururi, sha'nu sharafini dunyoga tarannum qilgan o'lmas so'z san'atkoridir. Istiqolol yillarida shoirning boqiy merosini chuqur o'rganish va keng targ'ib etishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Yurtimiz viloyatlaridan biriga, mamlakatimizning asosiy kutubxonasiga, teatrlar, oliy o'quv yurti, ilmiy-tadqiqot maskaniga, qator ko'chalar va xiyobonlarga ulug' bobomizning nomi berilgan. Mamlakatimiz mustaqilligining 20 yilligi arafasida buyuk shoirning 10 jildlik to'la asarlar to'plami chop etildi. Ayni vaqtda ko'plab xorij mamlakatlarida shoir asarlari turli tillarda nashr etilmoqda, badiiy merosini o'rganishga bag'ishlangan xalqaro konferensiyalar o'tkazilmoqda. Tokio, Moskva, Boku shaharlarida Navoiy bobomizning muazzam haykallari qad rostlab turibdi.

O'zbekchadan inglizchaga ko'p asarlar tarjima qilingan. Ular qisman ilmiy tahlilga ham tortildi. Biroq o'zbek tilidan ingliz tiliga Alisher Navoiy asarlari hozirga qadarmahsus ilmiy tadqiqot obyekt bo'lgan emas. Bizning ushbu bitiruv malakaviy ishimiz anashu boradagi dastlabki qadamlardan biri bo'lsa ajab emas. Shuning uchun ham biz maskur jarayondagi mavjud barcha muammolarni o'rta qo'yish va hal qilib berish davosidan mutloqo yiroqmiz. Biz o'zimiz uchun obyekt qilib olgan Navoiy g'azallari va hikmatli so'zlarini ingliz tiliga qilingan tarjimalari yuzasidan kuzatish olib borib hamda ilmiy nazariy xulosalar chiqarishda ishimiz o'zbek va ingliz adabiyotlarining o'zaro tasiri va bir birini boyitishdagi tarjimonlar ulushi, obyektiv va subyektiv omillar haqida fikr yuritdik. Bu borada olib borgan izlanishlarimiz asosiy natijalari quyidagi xulosalarda ifodalanadi.

- Alisher Navoiy dastlab adabiyotga shoir sifatida kirib kelgan va adabiyotda she'riyat qasrini qurdi, g'azal mulkining sultoniga aylandi, keyinchalik qator dostonlar yaratdi, adabiyotshunos, tilshunos, davlat va jamoat arbobi sifatida dunyoga tanildi. Alisher Navoiy o'z xalqini savodli, bilimli, madaniyatli ko'rish ruhi bilan qalam tebratdi. U mehnatkash, pok, halol, o'z aql-farosati, yaxshi odamlar qalbidagi zakovat va saxovat, samimiyat, sevgi-sadoqat, fidoyilik, inson baxti, xalqlarni, mamlakatlarni do'stlikka, hamkorlikka, ezgulikka chaqirish, insonparvarlik, vatanparvarlik tuyg'ularini ulug'ladi. Alisher Navoiyning yaratgan asarlarida millat taqdiri, birligi, el-yurt qayg'usi, yurtni obodonlashtirish, ilm, san'at va adabiyotni rivojlantirishni, Vatanga muhabbat, mehnatga sadoqat, axloqiy yuksaklikka intilish, go'zallik va muhabbat, mehr va muruvvat, shaxs erkinligi, ijtimoiy adolat uchun kurash g'oyalari bilan yo'g'rilgan- ligidir.
- Alisher Navoiy asarlari Yevropaga shoir vafotidan 56-yil o'tgach kirib bordi. Shunday qilib Alisher Navoiy ijodi yevropaga kirib borishi 400 yildan ortiq tarixga ega.

- Navoiy asarlarining ingliz tiliga tarjima qilish jarayonida tarjimonning oldidako'ndalang bo'ladigan bosh poetic namunalardan biri janr.
- Ingliz tiliga Navoiyning masnaviy, g'azal, munojot hikmatli so'z janrlardagi asarlari namunalari tarjima qilindi. Xar bir janr tarjimon oldiga alohida o'ziga hos muammolar qo'yadi. Ko'p tarjimonlar bu muammolarni hal qiladilar. Navoiy asarlarini inglizchaga aks ettirishda A. Kurellaning tabiat tasvirida g'azalning g'azal, his tuyg'ulari, didi, shoir ziyrakligi, his tuyg'ulari, didi bilan uyg'unlashib ketgan. Uni bir dostonida qo'llagan ranglarni anglatuvchi kalimalarning inglizcha tarjimada ham asliyatdagimano va badiiy vazifani bajarganini ko'ramiz.
- G'azal ingliz adabiyoti uchun ananaviy janr hisoblanmaydi. Xatto ingliz shariyatida g'azalning bosh hususiyati hisoblanmish qofiyalanish usuli (a-a,b-a,g-a) ham mavjud emas. G'azal lirik turga mansub lirik turning predmeti esa kishining qisqa muddatli ruhiy kechinmasi. G'azalning har bir baytida lirik qahramon voqealarga munosabat bildirib ko'nglini to'kib soladi demak g'azalning xar bir bayti lirik qaxramonga aloqador. Ochig'I, g'azalda lirik qaxramonning ichki dunyosi, xis xayajoni va kechinmalari ifodalanar ekan bujanr namunasi tarjimasidagi xar qanday o'zgartirish lirik qaxramon kayfiyatini aks ettirishga malum darajada ta'sir qiladi. Bu xususan lirik qaxramon va yor o'rtasidagi bog'liqlik va o'z aro munosabatlarda ko'proq bilinadi. Tarjimonning bayt misralari mazmunini erkin o'girish hatto ayrim misralar mazmunini tamoman tashlab ketishi buning natijasida o'zidan qandaydir mazmun kiritishi, tasavvufiy obrazlar dunyosidan tamoman boxabarligi hamda ingilizchada taglama o'rnida xam tasavvufona talqinlar yo'qligi tarjimalarda ishq haqiqiyini butunlay ishq majoziyga aylanib qolishga olib kelgan, shu tariqa ayrim g'azallarining asl g'oyaviy mazmunlari tarjimalarda aks etmay qolgan.
- Sharq shariyatida ingliz adabiyoti uchun u qadar hos bo'lmagan manoning haddan tashqari serqirraligi, nihoyatda boyligi, kuniya va majoz kuchliligi, ishoralarga o'ta moyillik va so'zning sermano jilolarga egaligi mavjud. Inglizchaga Navoiy va boshqa mumtoz shoirlarning asarlarini ko'ngildagidek tarjima qilishga erishish uchun, shubhasizki, ingliz adabiy jarayonida, adabiyotshunosligida sharq so' sanatini oziga hosliklari haqida yetarlichato'la tasavvurlar shakllangan bo'lishi kerak. Hozircha bu borada u qadar maqul darajada erishilgani yo'q. Shunga qaramasdan ingliz tarjimonlari Navoiy asarlarini badiyatini imkon qadar qayta yaratish va tadbil etishga intilganlar.
- Kuzatishlarimizvnatijalariga suyangan holdashun addil aytishimiz mumkinki, yalpi olganda Navoiy asarlarining ingliz tiga tarjima qilishda ko'p asrlk tajribalariga ozmi ko'pmi ingliz kitobxonlarining sharq mumtoz adabiyotinihis atib boorish, ko'nikmalarini shakllantirishga hissa qo'shdi.
- Navoiy asarlarini boshqa tillargato'la shirasi, ohangi, g'oyasi-yu mazmuni bilan tarjima qilinishi avval mutarjimning o'zi shoirni qanday tushunganganligiga, qlaversa, tushuntira olish qobiliyatiga ya'niqalami kuchiga bog'liq. Navoiy asarlarini mazmuninilo'la anglamay turib chinakam tarjima yaratib bo'lmaydi. Biroq, muhitni Navoiy asarlarining o'tkazishda asliyatdan vositachi tilsiz tarjima borasida dastlabki qadamlar tashlandi. Galdagi vazifa manashu amalga oshirilgan tarjimalarning yutuqlarini o'zida mujassamlashtirilgan, kamchiliklarini esa bartaraf etgan yangi mutarjimlar yaratishdan iborat bo'lishi kerak.
- Hikmatli so'zlarning ingliz tiliga o'giringanda shakl, mazmun va ritm 2- darajali deb, faqatgina mazmunga etibor berish hikmatli so'zning vaznini buzadi, kompozitsasiga shikast yetkazadi, ritmni pasaytiradi va oxir oqibatda hikmatli so'zning tasir kuchini yo'qqa chiqaradi. Hikmatli so'zlarning tarjimasida qofiyaning asliyatdagi shaklini saqlamaslik qofiyalanish shartlarini yengillashtirish asliyatdagi qofiyalanish usuliga mos kelmaydigan shakldagi qofiyalanish turlari bilan berish hikmatli so'zlarning ohangdorligini o'quvchiga emotsional ta'sirini kamaytiradi.

Summary

As is known to all, the popularity of certain country has been enlarged by certain great people for many centuries. It has been done the same in Uzbekistan too. There is no doubt that one of them is Alisher Navoi. One of the greatest sources for all who seek the richness of human life and activity are those rare poets like Navoi who passionately live out what they so eloquently share with the rest of us in words. Navoi dedicated his whole life to finding and creatively revealing life's meaning and beauty not only with words but with his life. A garden is pronounced good or bad by the fruit it produces. We can trust what Navoi tells us because he shares from the experience and learning of his own difficult godly life. He does not just say what sounds good, but what has been true and helpful for his own life. And where he is unsure, he tells his reader that he is still searching and begs God's forgiveness for anything wrong he might have said. Such vulnerable humbleness in a great poet and leader is inspiring. The art of poets like Navoi has a powerful way of working, especially in developing nations. Art transforms people's hearts and minds. It is in art that people's hearts and tongues are connected. Without the artist, society will not progress as it should. However, with one line from an artist positive changes can begin to take place. We need to stop separating the spiritual from the material, the heavenly from the earthly, the seen from the unseen. To address this sort of reductionism requires poets. We need artists to help transform our nations. Art influences how societies think of themselves from the inside out and how other societies perceive them. True progress is not in applying external forces, but about His name Navo'i literally means 'the owner of singing'. He lived from 1441 to 1501 mostly in Herat, Afghanistan and is one of the greatest poets of the Great Silk Road. "World-class status was attained by the Tajik, Uzbek and Turkmen literatures, in the works of 'Abd ar-Rahman Jami, Alisher Navai, and Makhtumquli, respectively."⁶ () When his foster brother Husain Baykaro became the Emir, Navoi became the prime minister. He was also a good steward of his high position and helped establish many needed institutions. "Nawai is reputed to have founded, restored and endowed no fewer than 370 mosques, schools, libraries, hospitals and other pious and charitable institutions in Khurasan alone." (Devereux, Robert. *Muslim World* 54 1964, p 270 -287.)

His numerous writings, endowments, and his life example have had lasting influence in Central Asia. Today, in the modern country of Uzbekistan, he is revered above all other poets. The name of Alisher Navoi is visible throughout the country. Major streets, theatres, museums, parks and even a province and city are named after him. His proverbs are on the tongues of Uzbeks, Turkmen and Tajiks. He is considered the father of the Uzbek language and one of the greatest poets of Central Asia. In his six epic poems and 100 000 plus lines of poetry he wrote passionately for truth and love and vehemently against oppression. Navoi's literary output encompasses the broad fields of both prose and poetry. He composed in prose, among other works, a history of Muslim mystics and a comparison of Chagatay and Persian as literary languages. He produced three collections of lyric poetry in Chagatay and a fourth in Persian. Additionally he wrote a grouping of five long narrative poems that instruct all segments of Muslim society as to their obligations and responsibilities as believers and as human beings.

⁶ Nazarov, Bakhtiyor and Denis Sinor. eds. *Essays of Uzbek: History, Culture and Language*. Bloomington, IN; Indiana University Press, 1993, p. 51.

When not involved in artistic and literary pursuits, Mir Ali Shir served as an important government official at the court of Sultan Husayn Bayqara, the ruler of Herat, in today's Afghanistan. He also funded the construction of mosques, madrasahs (secondary schools), hospitals and soup kitchens for the poor.

During my research I have faced different issues which are related to the process of translation. Of course, as I am a student, I had difficulties to consider the translated works of Ali Shir Navoi, but I tried to discuss some samples of works translated by Margaret Wettlin.

I found that there a lot of issues that must be researched in the field of translation. After doing research I realized that a translator must not only just translate a work, but also he must pay attention to the personages' speech in translation as an important factor.

Embodying personages' features in speech is one of the most complicated factors in translation. It requires a translator to pay attention every single unit in personages' speech and show them in translation for readers. Let's say a translator is translating a novel about one tribe. A translator may just translate personages' speech as an ordinary way, but he or she can not show in which way, such as in which dialect, heroes speaks in the aforementioned novel. In terms of translation this target factor is really necessary to be shown as it is, otherwise readers have wrong ideas about personages' speech. Nobody could imagine a simple country man is embodied speaking in the dialect of an assertive man from a city. As it can not be imagined, personages' speech in translation must not be given with other's speech. What I mean is that every image has his\her own way of speaking even in one language, let alone translation. Personages in a work use different kinds of dialects and the ways of speaking. Again one example is needed: a salesman speaks in rather different way contrasting with a teacher, or a scholar uses different words as a sportsman does it while expressing the same person or thing. That's why this issue is found really important. This bachelor's diploma work is made up of a preface and three chapters subdivided into subtitles accordingly. Chapter one describes the life and work of Ali Shir Navoi. Chapter two include information regarding the spreading of the works of Ali Shir Navoi in European countries.

Chapter three involves preserving national particularity of images in translation and the translation problems of the imagery means in translation science.

During my this work I have extended my horizons academically as well as personally. I should tell the fact in the end of my word that thanks to Navoi, the popularity of Uzbekistan is getting more still.

Foydalanilgan adabiyotlar

I Prezident asarlari

- 1.1 I. A. Karimov, O'zbekiston mustaqillik ostonasida. Toshkent: O'zbekiston, 2012 112-bet.
- 1.2 I. A. Karimov, O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari, tarqiyot kafolatlari. – Toshkent: O'zbekiston, 1997. – B. 140
- 1.3 I.A Karimov Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir. Toshkent: O'zbekiston 2010, 80-bet
- 1.4 I.A Karimov, Batan va xalq mangu qoladi, Toshkent: O'zbekiston 2010 134-bet.
- 1.5 I.A Karimov O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. Toshkent: O'zbekiston 1996. 144-bet.
- 1.6 I.A Karimov, Bizdan ozod va obod vatan qolsin. Toshkent: O'zbekiston 1996 380-bet.
- 1.7 I.A Karimov Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. Toshkent: O'zbekiston 1999 84-bet.
- 1.8 I. A Karimov O'zbek xalqi xech qachon, xech kimga qaram bo'lmaydi. Toshkent: O'zbekiston 2006 61-bet.
- 1.9 I.A Karimov Ozod va obod vatan, erkin va farovon xayot - pirovard maqsadimiz. Toshkent: O'zbekiston 2000 48-bet.
- 1.10 I.A.Karimov O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Qonunchilik Palatasi va Senatining 2010 yil 12 noyabrdagi “Mamlakatimizda demokratik islohatlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish kontseptsiyasi” ma`ruzasidan.
- 1.11 I.A Karimov Batan va xalq mangu qoladi. Toshkent: O'zbekiston 2000 58-bet.
- 1.12 I.A Karimov Yuksak ma`naviyat - yengilmas kuch. Toshkent: Ma`naviyat 2008 62-bet.
- 1.13 I.A Karimov Inson, uning xuquq va erkinliklari – oliy qadriyat. Toshkent: O'zbekiston 2006 86-bet.
- 1.14 I.A Karimov Jamiyatimizni erkinlashtirish, isloxotlarni chuqurlashtirish, ma`naviyatimizni yuksaltirish va xalqimizning xayot darajasini oshirish – barcha ishlarimizning mezoni va maqsadidir. Toshkent: O'zbekiston 2007 106-bet.

II- Navoiy va unga bag'ishlangan asarlar

- 2.1 Alisher Navoiy Aforizimlari. Tuzuvchi-mualliflar A. Azizov, A. Mutallibov, Z. Holmatov, I. Ishoqov, S. Ibrohimova, S. Mirzayev, S. Mutallibov. Toshkent: Fan 1941. 99-bet.
- 2.2 Alisher Navoiy Aforizimlari. Tuzuvchi-muallif H. Zarif . Toshkent: O'zdavnashr 1942 23-bet.
- 2.3 Alisher Navoiy Aforizimlari. 2-nashri. Nashrga tayyorlovchi H. Zarif Toshkent: O'zdavnashr 1948 31-bet.
- 2.4 Alisher Navoiy”Mahbub-ul qulub” asarlar 15 tomlik 13-tom Muharrir: S. G'aniyeva. Toshkent: Badiy adabiyot, 1966 242-bet.
- 2.5 Alisher Navoiy “Munojot”, nashrga tayyorlovchi Suyina G'ani qizi, Toshkent Nashriyot-manba birlashmasi.
- 2.6 Alisher Navoiy ”Farhod va Shirin” mukammal asarlar to'plami, 20 tomlik 8-tom, mas'ul muharrir S. Erkinov Toshkent: Fan 1991. 541-bet.\
- 2.7 Alisher Navoiy Hikmatlar, Tuzuvchi-muallif: S. Mutallibov, Toshkent: Adabiyot va sanat, 1968-yil 152-bet.
- 2.8 Alisher Navoiy Hikmatli so'zlar, Masul muharrir: H. Sulaymonov, Toshkent 1968-yil 152-bet.

III-Ilmiy asarlar

- 3.1 Vohitov R. “Majnun”ning tarjimalari Toshkent: Fan 1984-yil 71-bet.
- 3.2 Komilov H. Bu qanday sanat Toshkent: Adabiyot va sanat, 1984-yil71-bet.
- 3.3 Mallayev H. Asrlar etirofi va tazim, Toshkent: Fan 1978-yil 64-bet.
- 3.4 Murodov M. Navoiyshunoslarning jasorati, Toshkent: Fan 197-yil. 60-bet.

- 3.5 Salomov F. Til va tarjima, Toshkent: Fan 1966-yil 385-bet
3.6 To'hliyev B. Bilim ezgulik yo'li, Toshkent: Fan 1990-yil. 56-bet.

IV-To'plamlar va maqolalar.

- 4.1 Navoiy g'azallarining sharh haqida, O'zbekiston til va adabiyoti, 1993-yil N2 43-47-bet.
4.2 Bir go'zal jilvasi, Sharq yulduzi, 1991-yil N 9.
4.3 Qayumov A. Sevguchi ko'ngil iltijolari, Adabiy meros 1990 N1 13-18-bet.

V-Darslik va o'quv qo'llanmalar

- 5.1 Adabiyotshunoslikka kirish: Universitetlar va pedagogika institutlarining filologiya fakultetlari talabalari uchun darslik, qayta ishlangan va to'ldirilgan, 2-nashri/ H. Shukurov, N. Hotamov, Sh. Holmatov, M. Mahmudov. Toshkent: O'qiyuvchi, 1984-yil.
5.2 Sulton I. Adabiyot Nazariyasi, Toshkent: O'qiyuvchi, 1980-yil.

VI-Dissertatsiyalar

- 6.1 Nurmatov U. Tragediya Shillera na Uzbekiskom yazike. Toshkent 1985.
6.2 Abdullajanov A. Navoiy badiyatini nemischaga qayta yaratishni tadbil etish. Toshkent 1998.
6.3 Ahmedov N. O'zbek adabiyotida Alisher Navoiy siymosining muammolari, Toshkent 1994.

VII-Internet saytlari

- 7.1 www.gazeta.uz.
7.2 www.ziyonet.uz
7.3 www.edu.uz
7.4 www.kitob.uz
7.5 www.gov.uz
7.6 www.kutubhona.uz
7.7 www.wikipedia.org
7.8 www.ziyouz.uz/index.php?option=com...7...navoiy-asarlari...
7.9 www.fikr.uz/tag/Navoiy%20asarlari/
7.10 www.wikipedia.org/wiki/Alisher_Navoiy
7.11 www.infoteka.uz/Alisher-navoiy-asarlari-elektron-kutubxonasi
7.12 www.e-adabiyot.uz/uzbek/mumoz/navoi.